


**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
XALQ TA’LIMI VAZIRLIGI**

**O‘quvchilarni kasb-hunarga
yo‘naltirish va psixologik-pedagogik
respublika tashxis markazi**



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O‘RTA MAXSUS
TA’LIM VAZIRLIGI**

**Chirchiq davlat pedagogika
universiteti**



Eshitish imkoni cheklangan bola - ta'lim olish imkonidan cheklangan emas

nomli eshitishida muammosi bo‘lgan bolalarning ota-onalari va keng
jamoatchilik orasida sog‘lom ijtimoiy muhitni shakllantirish uchun metodik
tavsiya



Toshkent 2022-yil

O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligining O‘quvchilarni kasb-hunarga yo‘naltirish va psixologik-pedagogik respublika tashxis markazi Ilmiy metodik Kengashining **2022-yil 27-sentabrdagi 3-sonli** yig‘ilish qarori bilan ma’qullangan.

O‘quvchilarni kasb-hunarga yo‘naltirish va psixologik-pedagogik respublika tashxis markazi direktori **L.R.Gaynutdinov**ning umumiy tahriri ostida tayyorlandi.

Tuzuvchi:

F.Qodirova

Chirchiq davlat pedagogika universiteti
Pedagogika fakulteti “Maxsus
pedagogika” kafedrası mudiri
p.f.d.,(DSc) professor.

M.Qodirova

Toshkent viloyati Chirchiq davlat
pedagogika universiteti Pedagogika
fakulteti “Maxsus pedagogika” kafedrası
2-bosqich talabasi.

Taqrizchilar:

A.Eshmonov

Toshkent shahar Olmazor tumani 106- son
zaif eshituvchi bolalar uchun
ixtisoslashtirilgan maktab-internati
direktori.

S. Mo‘minov

Xalq ta’limi vazirligining O‘quvchilarni
kasb-hunarga yo‘naltirish va psixologik-
pedagogik respublika tashxis markazi
Inklyuziv ta’lim laboratoriyasi bo‘limi
metodisti.

“Men o‘qishni talab qilmayman, mayli a’lochi bo‘lmasin, eng “ikkichi” bola
bo‘lsin lekin barcha bilan birgalikda o‘qisin” **Ota-onalardan.**

Kirish

Bugungi kunda sog'lom bolalar qatorida alohida ta'limga ehtiyoji bo'lgan bolalarni sifatli ta'lim bilan ta'minlash masalasi davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sanaladi. Xususan, eshitishida muammosi bo'lgan bolalarni o'qitish, tarbiyalash va ijtimoiy hayotga tayyorlashning innovatsion texnologiyalarini amaliyotga tadbiq etish va bu jarayonga oilalarning bevosita ishtirokini ta'minlash muhim ahamiyat kasb etadi. Ma'lumki inklyuziv ta'lim qayerda va qachon tashkil qilinmasin eng muhimi oilalarning bevosita ishtirokiga asoslanadi. Ya'ni inklyuziv ta'limga jalb etilgan alohida ta'limga ehtiyoji bo'lgan bolalarning o'qish motivatsiyasi ijtimoiylashuv ko'nikmalari va akademik bilimlarini rivojlantirishda o'qituvchilarga birdek ko'makchi sifatida ota-onalarni xizmat qilishini taqazo qiladi. Qachonki ota-onalar oilasida pedagogik-psixologik o'quv muhitini tashkil qilar ekan shundagina inklyuziv ta'limga jalb qilingan bolalar uchun maktab quvonch maskaniga aylanadi. Hurmatli ota-onalar o'z farzandingiz uchun u borayotgan maktabni quvonch va hayot maktabiga aylantirishda ishtirok etmoqchimisiz, unda ushbu uslubiy metodik tavsiyani o'rganing. Unda berilgan tavsiyalarni oilaviy tarbiya muhitida qo'llashga harakat qiling. Tavsiyalar yuzasidan uchragan savollarga Xalq ta'limi vazirligi huzuridagi O'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirish va psixologik-pedagogik respublika tashxis markazi Inklyuziv ta'lim laboratoriyasi bo'limiga hamda Chirchiq davlat pedagogika universiteti Pedagogika fakulteti "Maxsus pedagogika" kafedrasiga murojaat qilishingiz mumkin.

Murojaat uchun tel: +998946432534 ([@sulton_inklyuziv](mailto:sulton_inklyuziv)), +998909702357 (@feruzausmon).

Eshitishida muammosi bo'lgan bolalar bilan oilalarda olib boriladigan mashg'ulotlarni o'tkazish bo'yicha tavsiyalar

Tevarak-atrof bilan tanishtirish. Kar va zaif eshituvchi bolalarning ta'lim bilan qamrab olinishi va ushbu jarayonning muvoffaqiyatli kechishi oilalarda tashkil etiluvchi ta'limiy yondashuvlarga bog'liqdir.

Surdopedagogika tarixidan ma'lumki, kar bolaning "gapirib ketishi" ta'limning erta boshlanishi va bu jarayonda ota-onalarning maqsadli, tizimli ishtirok etishisiz amalga oshmaydi. Qachonki, ota-onalar yoki bolaning yaqinlari mutaxassis bilan hamkorlikda ishlasa, shundagina maxsus ta'limdan kutilgan natijaga erishiladi. Chunki bola maktabda o'zlashtirgan bilimi, ko'nikma va malakalari oilada, tabiiy vaziyatlarda mustahkamlansagina uning nutqi rivojlanadi. Buning uchun oilada kar va zaif eshituvchi bola bilan maxsus mashg'ulotlar olib borish kerak. Asosan mashg'ulotlar bolalarga tevarak-atrofnı o'rgatish bilan boshlanadi. Dastlab aniq predmetlar va hodisalar o'rgatilsa, o'rta sinflardan boshlab, mavhum tushunchalar ustida ishlash tavsiya etiladi. Tevarak- atrof bilan tanishish orqali bolalar o'rab turgan borliqni undagi voqea-xodisalarnı o'rganadilar. Kar va zaif eshituvchi bolalar aynan tevarak-atrof bilan tanishish orqali o'qishga, o'quv fanlarini o'zlashtirishga tayyorlanadilar. Chunki ularning so'z boyligi o'qish uchun etarli bo'lmaydi. Buning uchun ularga har bir predmet va uning xususiyatlari, voqea-hodisalarning mohiyatini bevosita tushuntirish lozim, ya'ni har bir jarayon bola uchun ko'rgazmalilikni va bolaning bevosita ishtirokini talab etadi. Demak, ota-onalar tevarak-atrof bilan tanishtirish mashg'ulotida o'z farzandining so'z boyligi-lug'ati ustida ishlashi talab etiladi.

Hurmatli ota-onalar! Unutmang, eshitishida muammosi bo'lgan bolaning aqli joyida, u fikrlaydi, tahlil qiladi va o'z qaroriga egadir. Buning uchun bolangizda dastlab fikr uchun zarur zaxira etishmaydi. Ushbu zaxirani siz o'qituvchilar bilan birga yaratmasangiz, bolangiz o'z fikrini atrofdagilar "tili" bilan tushuntirish imkoniyatiga etarlicha ega bo'lmaydi. Afsuski, bolangiz har doim ham imo-ishorali nutqni biladigan insonlar orasida bo'lmaydi, har doim ham o'z fikrini karlarga xos tarzda birovlariga etkazaolmaydi. Natijada u o'z olamiga kirib qoladi. Mustaqil hayotda o'zgalar yordamiga muxtoj bo'lib qoladi. Agar Siz xushyor bo'lib, kunlik rejangizda bola uchun 1 soat ajratsangiz, uning farovon kelajagini ta'minlashga zamin yaratgan bo'lasiz.

Oilada tashkil etiluvchi korreksion ta'limiy muhit uchun quyidagilar zarur:

1. Bola uchun alohida xona (yoki burchak) ajratilishi. Bunda bola o'z ish joyiga ega bo'ladi. Bu yondashuv bolaga "shaxsiy mulk" tushunchasini o'rgatadi. Natijada bola o'z ish joyini tashkil etish, narsalardan foydalanish, ularni asrash, avaylash kabi ko'nikmalarni o'zlashtiradi.

2. Bola maktabda egallayotgan nutqiy materiallarning ko'rgazmali shakllarining mavjud bo'lishi. Bu aynan bolaning lug'at boyligi holatiga baho beruvchi yondashuv hisoblanadi. Bu yondashuv sizdan vaqt va mablag' (qog'oz, marker, rasmlar, elim, o'yinchoqlar, audio va videotasmalar....) talab qilsa-da, ammo mashg'ulotlarning samarasini belgilaydi. Unutmang, kar bolalarda "eshitish" o'rnini "ko'rish" va "teri orqali sezish" qoplaydi.

3. Bola bilan muloqotga kirishganda doim xissiyotingizni sezdiring. Uni yaxshi ko'rishingizni aytishdan charchamang.

4. Bola bilan gaplashganda shartli faqat siz va bola tushunadigan shartli imo-ishoralardan voz kechib, umumqabul qilingan imo-ishoralar, daktil alifbolar orqali gaplashishga erishish. Bu yondashuv aksariyat oilalar uchun muammo hisoblanadi. Chunki hamma oilalar ham karlarning nutqiy vositalarini o'zlashtirib, amalda qo'llash imkoniyatiga ega emaslar. Biroq kar bolalar ta'lim bilan qamrab olinib, umumqabul qilingan nutqiy vositalarni o'zlashtirganlaridan so'ng, ularning o'zlari ham Sizga muloqotda yordam berishga intiladilar. Shunday bo'lsa-da, oilada maxsus qutilarda daktil shriftlar va kundalik hayotda ko'p ishlatiladigan so'zlar yozilgan kartochkalar turishi maqsadga muvofiqdir. Bunday vaziyatlarda eng qulay vosita marker yordamida ish qog'ozlariga so'zlarni yozish va tushuntirishdir.

Ota-onalarning o'qituvchi bilan birga tuzgan ish rejasining mavjudligi. Siz o'qituvchi bilan birga reja tuzing. Bolangiz egallashi kerak bo'lgan so'zlar va tushunchalar, bajarishni bilishi kerak bo'lgan harakatlarni mavzuli tarzda yozib oling. Reja asosida ketma-ket ishlang. Har bir jarayonning natijasini kuzatib boring. Erisha olmagan mavzularni o'qituvchi yoki tarbiyachiga yetkazing.

Oilalarda mashg'ulotlarni tashkil etish va olib borish

Eshitishida muammosi bo'lgan bola maktabdan uyga kelgach, erkin bo'lishga harakat qiladi. Uning erkinligini bo'g'ib qo'ymang, aksincha uni zimdan kuzating va ko'rinmas ipda ushlab turgandek vaziyatni boshqaring. U bilan birga o'ynang. Bola oila muhitini albatta his qilishi lozim. Ma'lum vaqt o'tgach, mashg'ulot o'tishingizni bildiring. Mashg'ulot rasmiy munosabatda bo'lmasligiga e'tibor bering.

Mashg'ulot uchun zarur so'zlarni kartochkalarda tayyorlang. Bunda bolangizda mavjud tasavvurlar, imo-ishoralar orqali ifodalaydigan so'zlarini nutqiyl ifodaga ko'chirish-yozish (bosma harflarda), aytish, daktillashga o'rgatasiz. Bu esa amaliy faoliyat orqali amalga oshiriladi. Ya'ni Siz bolangizga berayotgan har bir so'z-tushuncha uning amaliyotida, kundalik hayotida uchraydigan predmetlar va hodisalarni tashkil etishi lozim. Aynan ko'zi ko'rib, tajribasida tanilgan predmetlar va hodisalarni bola o'ziga xos imo-ishoralarda ifodalashga harakat qiladi. Siz shunda uning harakatlarini vaqtida payqab, nima demoqchi bo'lganini tushunishga harakat qiling. Zinxor, bolaga *“tushunmayapman, nima deyapsan, o'zi”* yoki boshqa ta'qiqlovchi gaplarni aytman. Aksincha u bilan muloqotda davom etib, imo-ishorada bo'lsa ham uni oxirigacha tinglang. Bolangiz yuzingizdan uni tushunayotganini his qilsin. Endi Siz bola imo-ishoralarda ifodalagan belgining, daktil yoki bosma harflardagi yozuvini namoyish qiling. Masalan, bola sizga choy ichmoqchi bo'lib, piyolani yoki qo'lini og'ziga olib kelib, *“ichish”*ni ko'rsatsa, unga siz *“choy ichaman”* degan bosma harfda yozilgan yoki kesma daktil shriftlardan tuzilgan yozuvni ko'rsating va u yozuv ma'lum muddat oshxonada tursin. Albatta, buning uchun har bir predmetning asl holati, rasmi, kartochkadagi (dastlab bosma harflardagi yoki daktil shriftlardagi) yozuvi tayyorlanishi lozim.

Eslatma! E'tibor bering. Bolangiz bu mashg'ulotda *“Nutq o'stirish”* mashg'ulotida bilib olgan so'zlaridan nutqida foydalanishga o'rganadi. Ya'ni siz *“Nutq o'stirish”* mashg'ulotida *“Oziq ovqatlar”* mavzusida ishlaganingizda *“choy”* nimaligini va qanday nomlanishini o'rgangan uchun endi bola uni nutqida qo'llaydi, ya'ni gap shaklida aytadi, *“Choy ichaman”*. Bola choy ichib bo'lgandan keyin u sizga *“raxmat”* deb aytishini kulib talab qiling. Buning uchun ham siz *“raxmat”* so'zini yozib, kartochkada tayyorlab qo'ygan bo'lasiz. Bu so'zni bola bilan har bir olib borgan ishingizda, nimani so'rasa berganingizda yoki boshqalardan narsa olsangiz yoki birovlar va bolangiz sizga u, bu ishda yordam berganida bolaga *“raxmat”* so'zini ko'rsatib aytasiz. SHunda 2 haftalarda bola choy ichib bo'lib yoki boshqa iltifotlarda sizga va boshqalarga minnatdorchilik bildirishga o'rganadi. Albatta buning uchun narsa so'rashdan oldin uni so'rashga, *“iltimos”* qilishga o'rgatish lozim. Bu jarayon ham *“raxmat”* ni o'rgatgandek olib boriladi.

Demak, bola predmetlarning guruhiga oid soʻzlarni “Nutq oʻstirish” mashgʻulotida nomlashga, “Tevarak atrof bilan tanishtirish” mashgʻulotida esa oʻsha soʻzlardan foydalanib, kerakli fikrlarni bildirishga oʻrganadi.

Bunda sizdan quyidagilar talab qilinadi:

1. Kar va zaif eshituvchi bolalar muloqotda qoʻllaydigan va ularga savod oʻrgatishda asosiy vosita hisoblangan-daktil belgilarni oʻrganishingiz.

2. Daktil harflar-shriftlardan koʻp miqdorda tayyorlab, kesma harflar-shriflar shaklida tayyorlab qoʻyishingiz.

3. Alifbodagi harflarning ham kesma shaklida koʻp miqdorda tayyorlashingiz.

4. Maxsus mashgʻulot uchun zarur boʻlgan jihozlar qogʻoz, marker, skotch va boshqa mashgʻulotning koʻrgazmaliligini taʼminlovchi narsalarni oldindan tayyorlashingiz.

5. Har bir mashgʻulotingizda aniq maqsadni belgilay olishingiz lozim.

Bolalar bilan quyidagi mavzularda mashgʻulotlar olib borishingiz koʻzda tutiladi:

- gigienik qoidalar, salomlashish, uyda, mehmonda, koʻchada, transportda va h.k jamoat joylarda oʻzini tutish qoidalari;

- ota-onasi, aka-ukasi, yaqin qarindoshlarining ismi;

- oʻz mahallasi, uyi, xonasi;

- oʻziga tegishli narsalar;

- oʻquv qurollari (boʻr, qogʻoz, qalam, ruchka, elim);

- mevalar, sabzavotlar;

- koʻp uchraydigan (mashgʻulotlarda qoʻllaniladigan) oʻyinchoqlar va ular bilan oʻynash;

- oziq-ovqat nomlari va ularni isteʼmol qilish;

- daraxtlar va ularning nomlari;

- uy va xona jihozlarini nomlarini bilishi va nutqida aytishi.

6 yoshdan boshlab esa quyidagilarni muntazam ravishda farzandingiz nutqida qoʻllashi majburiy sanaladi:

- hafta kunlari, oy nomlarini bilish;

- ob-havoni kuzatish, xavo qandayligini ayta olish;

- bayramlar haqida tushunchaga ega boʻlish (yangi yil, tugʻilgan kun mustaqillik kuni, 8-mart, navroʻz bayrami);

- Vatanni, Prezidentni, manzili, oila a'zolari, kundalik hayotida zarur ashyolar, sog'ligi haqida ayta olish.

Ma'lumki, tevarak-atrofimizda, hayotimizda aniq predmet va hodisalardan tashqari mavhum tushunchalar ham mavjudki, ularni kar va zaif eshituvchi bolalarga tushuntirish ancha qiyin kechadi. Buning uchun muddat va moddiy sarf talab etiladi. Masalan, yaxshilik, mexribonlik, yordam, ishonch, do'stlik, rostgo'ylik, ayyorlik, sabr, diqqat va boshqa tushunchalarni bolaga tushuntirish uchun har xil ishlar olib borish lozim. Bunda asosan ertaklar va multfilmlar, kundalik hayotidagi voqealarning qayta-qayta ijrosi, namoyishi talab etiladi. Buning uchun video tasmalar, DVD disklar va syujetli rasmlar kerak bo'ladi. Bunda masalan, "Zumrad va Qimmat" ertagini olsak, bola undagi ijobiy va salbiy obrazlarni ajratishi uchun ertakning rasmlarda va ekrandagi namoyishi talab etiladi. Har bir epizoddan keyin kartochkalarda tushuntiriladi. Buni qanday olib borilishi quyida mashg'ulot asosida beriladi.

Mashg'ulot olib borganda dastlab predmetning rasmi yoki asl holati namoyish etiladi. Agar bola daktil belgilardan foydalanishni bilsa, unda kesma daktil shriftlardan, agar daktil shriftlarni bilmasa, unda kesma bosma harflardan shu so'z anglatgan ma'no teriladi. Bir necha marta shu tartibda ish takrorlansa, bolaning o'ziga kesma daktil yoki harflardan so'zni terishi talab etiladi. Biron bir predmetni ko'rsatish va uning so'zdagi ifodasini namoyish etish va yalpi o'qitish talab etiladi. Shundan so'ng endi ish turi murakkablashib, so'z ko'rsatiladi. Bola shu so'zning rasmi yoki asl holatini ko'rsatadi. Shu tariqa so'z bolaning lug'at boyligidan o'rin oladi.

Shu tarzda bolangiz oilada o'yin, mashg'ulot va qator faoliyatlarning bevosita ishtirokchisiga aylanadi. Bolaning nutqi esa hech qachon turtkisiz yuzaga kelmaydi. U ehtiyoj-fikrlash, his qilish asosida yuzaga keladi. Ayniqsa bolalarning tengdoshlari bilan ish faoliyatlari nutqiy faoliyat, muloqot uchun eng qulay sharoit hisoblanadi.

Bunda farzandingiz tengdoshlari bilan birga o'ynashi, oilaviy tadbirlarda qatnashishi maqsadga muvofiqdir. Chunki shunday vaziyatda bolaning predmetni anglashi, nomlashiga imkoniyat kengroq yaratiladi. Farzandingizning atrofidagi insonlar u bilan quvnoq va mehribon munosabatda bo'lishini nazorat qiling. Buning uchun avvalo o'zingiz sabrli bo'ling va farzandingizning xatto har bir injiqliklariga xam mehr bilan javob qaytarishga harakat qiling. Shunday qilsangiz atrofdagilar farzandingiz bilan munosabatni o'rnatishida sizdan andoza oladi. Demak, atrofdagilarning farzandingiz bilan qay yo'sinda muloqotda bo'lishi sizning har bir xatti-harakatingiz natijasidir.

Alohida yordamga muhtoj bolalarning atrofidagi yaqin kishilari va o'rqoqlari bilan muloqoti uning nutqiy faoliyatini yuzaga kelishiga turtki bo'ladi. U quyidagi bosqichda amalga oshadi:

1. Predmetning, voqeaning o'zi, rasmi yoki yozma va ekrandagi namoyishi.
2. Ko'rsatilganlarni nomlash (daktil va grafik bosma harflarda va albatta og'zaki)
3. Nomlaganlarini nutqida qo'llash.
4. Mustaqil ifodalash.

Eslatma!: kar va zaif eshituvchi bolalar dastlab so'zlarning to'g'ri holatiga yaqin, ya'ni konturini aytishi mumkin, masalan kitob so'zi, dastlab bola sizning labingiz xolati, tilingizning harakatiga qarab- **a tab** , yoki – **tab** deb talaffuz qilishi mumkin. Shunda siz bolani ham o'zingizni ham qiynab, **-tab** emas, **-maktab** deb to'g'ri aytishini talab qilmang. Chunki bola keyinchalik xato qilib qo'yishdan qo'rqib, umuman bir so'z ham aytmay qo'yishi mumkin.

Bola bilan talaffuz mashqlari maxsus o'tkazilgandan va albatta bolaning eshitish va talaffuz ko'nikmalari shakllantirilgandan keyin to'g'ri xolatini talaffuz qilish talabi qo'yilsa, maqsadga muvofiq hisoblanadi.

1-mashg'ulot. Tevarak-atrof bilan tanishtirish.

4-6 yoshli kar va zaif eshituvchi bolalar uchun

Mashg'ulot mavzusi: Men va oila a'zolarim.

Mashg'ulotning maqsadi: Bola o'zi va oila a'zolarining ismini va ularning qarindoshlik jihatlarini nomlashga o'rganadi.

Davomiyligi: 30-45 daqiqa (sharoitga qarab muddat o'zgarishi mumkin).

Jihozlar: Oila a'zolarining rasmi, taqqoslash va mustaxkamlash uchun qo'shni yoki boshqa, ya'ni bola ko'proq muloqotda bo'ladigan qarindosh xonadonning oilaviy rasmi, kesma daktil va alifbo harflari, marker va qog'ozlar.

Mashg'ulotning borishi

1-qadam. Siz bugun oilada qanday voqea sodir bo'lganini o'z oilangizda bola bilan ishlatadigan imo-oshoralar asosida bo'lsa ham tasvirlab bolangizning kayfiyatini ko'tarishga harakat qiling. Bolani quvnoqlik va xushmuomalalik asosida mashg'ulotga tayyorlang.

2-qadam. Oila a'zolari birgalikdagi fotosuratni ko'rsating.

Kesma harflar va daktil shriftlarda quyidagilarni tering.

Eslatma: Sizning xonadoningizda maxsus harflar terish uchun doska yoki taxta tayyorlangan bo‘lmog‘i talab etiladi. Shunda bolangiz o‘zi Shug‘ullanadigan joyini toza tutishiga va yozilgan yoki terilgan so‘zlarni doimo ko‘rib, takrorlab turishi uchun sharoit yaratilgan bo‘ladi.

Bu oila. Bizning oila.

Bu dada. (oila a‘zolarining fotosuratlarini aloxida rasmini ko‘rsating, har bir fotosuratning tagida tegishli so‘zning daktil va bosma harfli ifodasi teriladi).

Bu oyi.

Bu aka.

Bu uka.

Bu singil

Bu dada

Bu oyi

Bu aka.

Bu uka.

Bu bizning oila

3- qadam: Rasmlarni nomlagandan so‘ng so‘zlarni ko‘p marta takrorlashiga erishing.

4- qadam: Rasmlarni olib qo‘ying va so‘zlarni daktilda o‘qiting.


5- qadam: So‘zlarni tering va shu so‘zlarga mos rasmlarni topishini taklif qiling.

!-topshiriq ushbu mashg‘ulot davomida bola o‘z oila a‘zolarining qarindoshlik jihatlarini o‘rganadi, endi xuddi shunday tartibda boshqa, ya‘ni bola va sizning oilangiz ko‘p muloqotda bo‘ladigan oilalarning qarindoshlik jihatlarini o‘rgatiladi.


2-mashgʻulot

1- qadam: Qarindoshlarning rasmlarini namoyish qiling.

Bu xola



Bu amma



Bu togʻa



Bu larning oilasi.



2- qadam: Fotosuratlarni nomlashga oʻrgatilgandan soʻng har bir mashqlarni takrorlab chiqing. 1-mashgʻulotdagidek kabi ishlarni takrorlang.

3-mashg‘ulot

Mavzu: Oila a‘zolarining ismlari

Maqsad: Oila a‘zolarining ismlarini og‘zaki, og‘zaki-daktil va yozma ravishda ifodalashga o‘rganadi.

Jihozlar: Oldingi mashg‘ulotda kerak bo‘lgan jihozlar.

1-qadam: Oldingi mashg‘ulotda o‘rgangan ma‘lumotlarni bir qator takrorlang. Masalan,

Bu kim? Bu dada. Bu kim? Bu oyi(aya, ena, opa)

Bu kim? Bu aka. Bu kim? Bu singil.

2-qadam: O‘rgangan qarindoshi yoki oila a‘zolarining ismini o‘rgating.

Bu dad - U Ismoil.

Bu oyi - U Oysha

Bu aka - U Axmad.

Bu uka - U Olim

Bu singil- U Mexri

So‘zlarning bosma harflardagi va daktil kesma shariftlardagi ifodasini tering.

3-qadam: Bolaning o‘zi har bir so‘z tagiga yana bir qator so‘zlarni tersin. Demak, har bir ism tagida xuddi shu ism terildi.

4-qadam : “Dada” fotosuratini qo‘ying va so‘zni terishni so‘rang. Agar bola - ***dada*** so‘zini tersa, unda - ***U*** - deb –***U-*** harfini qo‘ying, shunda bola – ***U Ismoil so‘zini teradi.***

! Agar bola so‘zni to‘liq termasa, unda bola tergan so‘zning yoniga siz ham tering. Bola solishtiradi va xatosini tuzatadi.

5-qadam. Oyi fotosuratini qo‘ying. So‘zni terishini so‘rang.

6-qadam. Aka, uka va singil so‘zlari ustida ishlang (terdiring).

7-qadam. Endi so‘zlar terilgan joyida tursin sekin fotosuratlarni olib qo‘ying va ularni boshqa joyga aralash qo‘yib qo‘ying. Boladan so‘zga tegishli fotosuratni joyiga qo‘yishni so‘rang.

8-qadam. Bola har bir so‘z ustiga tegishli fotosuratlarni qo‘yib chiqadi.

! Agar bola fotosuratlarni topishga yoki qo‘liga olib joyiga qo‘yishga qiynalsa, yordam bering, bir qator qo‘yib ko‘rsating.

9-qadam. Endi fotosuratlar joyida qolsin, boladan tegishli harflardan yoki daktilemalardan so‘zni terishni so‘rang.

10-qadam. Bola so‘zlarni terib bo‘lgandan so‘ng har bir so‘zni birgalikda baravar ham og‘zaki, ham daktil ravishda aytinglar.

11-qadam. Xuddi shu tarzda bolangizga o‘z ismini o‘rgating.

12-qadam. Bolangizni yaxshi qatnashgani uchun uni rag‘batlantiring, masalan, u bilan kechki sayrga yoki u yaxshi ko‘rgan joylarga boring. Yoki u xush ko‘rgan taomini pishirib bering, agar pishirish jarayonida ham bola siz bilan birga bo‘lsa, yanada maqsadga muvofiq bo‘lar edi. Albatta bunda bolani charchatmasdan, aksincha, u bilan kulib, uni quchoqlab, bag‘ringizga bosib o‘z ishingizda davom etsangiz, u sizning yoningizdaligidan xursand bo‘ladi.

4 – mashg‘ulot

Mashg‘ulot mavzusi: Daraxtlar

Mashg‘ulot maqsadi: Xonadoni va mahallasida o‘sadigan daraxt nomlarini o‘rganadi.

Davomiyligi: 30-35 daqiqa

Jihozlar: Marker yoki flomaster, yozuv qog‘ozi (A 4 o‘lchamli), so‘zlar yozilgan kartochkalar, skotch va kesma daktil va bosma harflar.

Mashg‘ulotning borishi

1 - qadam. Bolani mashg‘ulotga tayyorlang. Masalan, mashg‘ulotdan keyin bola yaxshi ko‘radigan o‘yinni o‘ynaymiz deb va‘da bering.

! Doim ham u yoki bu narsani bolaga va‘da qilavermang, chunki bola mashg‘ulotdan oldin biron narsaga erishishga, ya‘ni xomtama bo‘lishga o‘rganib qoladi.

2 - qadam. Hozir sen bilan sayr qilamiz. Jihozlarni birgalikda olib yurishini so‘rang.

3 - qadam. Xovlida mavjud daraxtlarning yoniga boring va **-daraxt** so‘zini biron-bir daraxtga yopishtiring va bola bilan birga daktillang va og‘zaki ayting.

4 – qadam. Yana boshqa daraxtga boring, endi shu so‘zni bola yopishtirsin,

-daraxt

5 - qadam. Endi har bir daraxtning yoniga borib, - **daraxt** soʻzining tagiga shu daraxtning nomini tering, masalan, **-olma**.

6-qadam. Endi boshqa daraxtning yoniga boring va tegishli nomini tering, – **behi**, - **gilos**.

7-qadam. Bola koʻzini yumib tursin va siz soʻzning tarkibini chalkashtirib qoʻying. Bola koʻzini ochib, soʻzning tarkibini qayta tiklab tersin.

8-qadam. Bola bilan birga har bir soʻzni takrorlab aytinglar.

9-qadam. Endi boshqa joyda oʻrgangan daraxtlarning nomlarini kesma harflarda tering va boladan soʻrang: masalan, **-olma** soʻzini tering va

Qaysi daraxt? yoki koʻrsat yoki yoniga bor.

10- qadam. Bola soʻzni oʻqib yoki koʻrib harflarning joylashuvini soʻz tarkibini eslagan xolda shu daraxtning yoniga boradi.

! Agar bola soʻzning tarkibini koʻrib, daraxtni topa olmasa, yoki xato qilsa, yaʼni olmani emas, balki boshqa daraxtning yoniga borsa, unda bola bilan shu soʻz ustida boshqatdan ishlang. Lekin xato qilgani uchun zinxor bolani koyimang.

11- qadam. Shu tariqa har bir daraxtning yoniga borishini talab qiling.

5 – mashgʻulot

Mashgʻulot mavzusi: Daraxtlar mavzusini takrorlash.

Mashgʻulot maqsadi: Xonadoni va maxallasida oʻsadigan daraxt nomlarini nutqida qoʻllashga oʻrganadi.

Davomiyligi: 30-35 daqiqa

Jihozlar: Marker yoki flomaster, yozuv qogʻozi (A 4 oʻlchamli), soʻzlar yozilgan kartochkalar, skotch va kesma daktil va bosma harflar.

1-qadam. Xonaga xovligingizdagi daraxtlarning shoxlaridan olib kiring.
Bu shox. Daraxtning shoxi

Soʻzlarni takrorlang va bola bilan birga ogʻzaki daktil shaklda ayting.

2- qadam. Shoxlarni koʻrsating va soʻrang.

Bu qaysi daraxtning shoxi? Bu qaysi daraxtniki?

Agar bola daraxtning shoxini koʻrib, eslab,

Bu olma, bu behi , bu gilos va h k. deb soʻzlarni terib bersa, yaxshi natijani koʻrsatgani uchun bolani ragʻbatlantirishingiz mumkin.

Agar bola daraxtlarning shoxlarini tanimasa, eslay olmasa, unda bolani qo‘liga shu shoxni bering va xovliga chiqib ko‘rib kelishini so‘rang.

Bola xovliga chiqib, shox qaysi daraxtga tegishli ekanligini bilib keladi va daraxt nomini teradi.

Shu tarzda xovlidagi daraxtlarning nomlarini takrorlab olinglar.

3- qadam. Endi bola bilan birga gerbariy tayyorlang. Buning uchun xovlidagi daraxtlarning barglaridan terib kelishini so‘rang va A 4 format qog‘ozga qanday yopishtirishni ko‘rsating. Bola o‘zi ham har bir jarayonni mustaqil bajarishi lozim.

4- qadam. Endi albomga gerbariy tayyorlash ustida ishlang. Chunki bolangiz buni bilib olgan. Shuning uchun topshiriq bering:

Maxallaga(ko‘chaga) chiqib, barglarni terib kel.

5-qadam. Bola terib kelgan barglarini albomga tartib bilan yopishtirishini so‘rang.

6-qadam. Bola albomga barglarni yopishtirib bo‘lgandan so‘ng, ushbu barglar qaysi daraxtga tegishli ekanligini so‘rang va bola so‘zlarni kesma harflarda terib bersa, unda albomga shu bargning tagiga tegishli so‘zni yozib qo‘ying.

7- qadam. Bolaning yaxshi va faol ishlagani uchun rag‘batlantiring.

6 –mashg‘ulot

Mavzu: Predmetlar orasidagi fazoviy munosabatlarni tushunish va aniq so‘zlar bilan aytish.

Mashg‘ulotning maqsadi: *yuqorida, pastda, o‘ngda* va *chapda* kabi fazoviy munosabatlarni ifodalovchi tushunchalardan amalda foydalanish ko‘nikmalarini rivojlantirish.

Davomiyligi: 35 daqiqa

Jihozlar: Markerlar , qog‘ozlar, kesma harflar

Mashg‘ulotning borishi:

1-qadam. Kitob javoni yoniga boring.

2-qadam Bolaga kitob bering va javonga qo‘y deb topshiriq bering.

3-qadam ***Bola kitob javoning ixtiyriy qavatiga kitobini qo‘yishi mumkin.***

4-qadam. Siz yana daftar bering va uni ham javonga qo‘yishini so‘rang. Bola daftarni ham javonga qo‘yadi. Agar bola kitobni boshqa va daftarni boshqa qavatga

qo‘ysa, unda - **yuqori** va – **pastda** so‘zlarini tering va bolaga kaysi predmet yuqorida joylashgan bo‘lsa uni ko‘rsating

5-qadam Nima qanday joylashganini ko‘rsatib, qayta – qayta –**yuqori va - pastda** so‘zlarini tering va bola bilan birga o‘qing.

6- qadam. Ixtiyoriy, masalan uy jihozlari tasvirlangan xonaning rasmini namoyish qiling va boladan so‘rang.

Masalan, **nima yuqorida turibdi?**

Nima pastda turibdi?

7- qadam. Bola bir necha bor predmetlarning joylashuvini aytib bergandan so‘ng unga topshiriq bering:

- **Buni yuqoriga qo‘y**

- **Buni pastga qo‘y va x. k.**

8- qadam. Bola topshiriqlarni bajarib bo‘lgandan so‘ng uni rag‘batlantiring

7-mashg‘ulot mavzusi Hayvonlar

Mashg‘ulotning maqsadi: Hayvonlarning turlari haqidagi bilimlarini mutahkamlash, rivojlantirish, ularga to‘g‘ri munosabatni tarbiyalash.

Ajratilgan vaqt 35 daqiqa

Jihozlar: Oldingi mashg‘ulotdagidek.

Mashg‘ulotning borishi

1-qadam. Hayvonlarning rasmini ko‘rsating. Bola ko‘rgan hayvonlarini har xil harakatlar yoki ovozlari bilan ifodalashi mumkin, siz shunda bolani tinglang, va bola so‘zini yoki harakatini tamomlagandan so‘ng, har bir hayvon rasmi tagiga tegishli so‘zlarni tering. Masalan,



Sigir



Ot



Qo‘y

Echki



It



Mushuk



2-qadam. Har bir rasmni tagiga soʻzni tering va bola birga oʻqing.

3-qadam Bola soʻzlarni takrorlagandan soʻng, soʻzlarni olib bashlang va bolaga topshiriq bering, yaʼni savol bering, savolni harflarda terib qoʻying, yaʼni - **Bu nima?**

4-qadam. Bola har bir hayvonning tagiga uning nomini terib boʻlgach, u bilan yana bir bor soʻzlarni takrorlang.

5-qadam. Endi bolaga koʻzini yumib turishini soʻrang. Siz bola tergan soʻzlarning tarkibini chalkashtiring va bola koʻzini ochib qarab, qaysi soʻz oʻzgartirilganini topsin va shu soʻzni tartib bilan harflarini tiklab tersin.

6- qadam. Endi siz koʻzingizni yumib turing va bola soʻzlarning harflarini chalkashtirsin. Siz koʻzingizni ochib, xazil aralash qaysi soʻzni oʻzgartirdi ekan deb ozgina oʻylanib, soʻngra toping va shu soʻzni toʻgʻrilang.


7- qadam. Albomga ixtiyoriy hayvonning rasmini chizib tasvirlashini soʻrang.

!Siz bu paytda boshqa ishlaringiz bilan mashgʻul boʻlishingiz mumkin va bola rasmni aynan oʻxshatmasada, hayvonning gavda qismlarini chizishga harakat qilishini soʻrang.

8- qadam. Bolaning faol va qiziqarli ishlagani uchun uni ragʻbatlantiring.

**Oilada eshitishida muammosi bo'lgan bolalar bilan olib boriluvchi
amaliy mashg'ulotlar uchun ish namunalari.**

1-mashg'ulot: Mevalar yasash.



Bolaga qog'oz bilan ishlashni o'rgatish uchun avval kattalar namuna ko'rsatib berishi maqsadga muvofiqdir.

Bunda bolaga qarab, qog'ozni ol, andozani qo'yib, chetini chiz va qirq deb aytiladi. Bola taqlid asosida ishni bajaradi. Har bir ish jarayoni bajarilgandan so'ng bolaga savollar beriladi:

- Sen nima qilding?
- qaysi rangli qog'ozdan qirqding?
- olmaning rangi va shakli qanday?
- yana qanday mevalarni bilasan?



2-mashg'ulot: iplardan narsalar yasash.



Umumta'lim muassasalarida inklyuziv sinf o'quvchilarini ijtimoiy hayotga tayyorlashning innovatsion texnologiyalari.

Kar va zaif eshituvchi bolalarni ijtimoiy hayotga tayyorlashning mazmuni va texnologiyalari.

Sog'lom bolalar kabi kar va zaif eshituvchi bolalar ham jamiyatning turli munosabatlarida ishtirok etish ko'nikmalarini oila va ta'lim muassasalarida egallaydilar. Biroq aksariyat oilalar mazkur toifa bolalarni avaylab, o'z vaqtida kerakli jarayon (jamoaga yaqinlashtirish, o'ynatish, turli faoliyatlarni birga bajartirish, uy yumushlarini taqsimlash, o'z-o'zini boshqarish va namoyon qilish)ga jalb qilmaydilar. Natijada kar bola maktab ta'limiga jalb etilganida bog'chaga kelgan sog'lom boladek mustaqil o'z-o'ziga hizmat va oddiy murojaatlarga o'rgatiladi. Sekin-asta umumyashaydigan joy qoidalari va tartibini o'zlashtirishga kirishadilar. Bundan tashqari ular qator o'quv fanlari bo'yicha bilim, ko'nikma va malakalarni egallaydilar.

“Predmetli amaliy ta'lim” (boshlang'ich sinflarda), “Texnologiya” (yuqori sinflarda) fani kar va zaif eshituvchi bolalar maktablarida asosiy fanlardan biri

bo'lib, unda o'quvchilarning aqliy, nutqiy, jismoniy imkoniyatlaridan har tomonlama optimal foydalanish uchun sharoit yaratiladi. "Predmetli amaliy ta'lim" darsi o'z mazmunida ham ona tili, ham mehnat fanining talablarini aks ettiradi. SHu bilan bog'liq holda ushbu darsda o'quvchilarni nutqiy muloqotga tayyorlashning ustuvorligi mehnat ko'nikmalarini rivojlantirish orqali ta'minlanadi. Ma'lumki, kar va zaif eshituvchi bolalar atrofdagi narsa va hodisalar haqida o'ziga xos tasavvurga ega bo'lib, ularni amaliy egallaydilar. O'quvchilar "Predmetli amaliy ta'lim" darsi orqali atrof-muhit haqidagi bilimlarni, hayotiy tajribalarni o'zlashtiradilar. Tabiat va jamiyatda shunday tushunchalar mavjudki, ularni bevosita tushuntirishdan ko'ra, tayyor ko'rgazmali holatda o'quvchilarga etkazish qulaydir. SHunday qilib, kar va zaif eshituvchi o'quvchilarning jamiyatga uyg'unlashuvi uchun zamin bo'lib hisoblangan holda "Predmetli amaliy ta'lim" darsi quyidagi vazifalarni amalga oshiradi:

1. Fanlarini egallashda muhim bo'lgan lug'at zahirasi (tushuncha va tasavvurlar)ni shakllantirish.
2. Tilni tafakkur quroli va muloqot vositasi sifatida egallashga o'rgatish.
3. Ta'limning tarbiyaviy ahamiyatini oshirish.
4. O'quvchilarning kasbgacha tayyorgarligiga zamin yaratish.
5. O'quvchilarda ijodkorlikni va loyihalashtirish ko'nikmalarini rivojlantirish.

Kar va zaif eshituvchi bolalar ta'limiga differensial yondashuvlarni tatbiq etish va korreksion ishlarning ustuvor yo'nalishlarini belgilab olishda umumta'lim va korreksion fanlarning maqsad va vazifalarini aniqlash, to'g'ri yo'naltirish zarur. Kar va zaif eshituvchi bolalar o'quv fanlari talablarini sog'lom bolalarga nisbatan uzoq muddatda va maxsus tayyorlangan o'quv materiallari orqali egallaydilar. Buning uchun maxsus maktab-internatlarda umumta'lim maktablaridan farqli holda maxsus korreksion mashg'ulotlar qo'shimcha tashkil etiladi. Korreksion mashg'ulotlar o'quvchilarning birlamchi va ikkilamchi nuqsonlarini bartaraf etish uchun hizmat qiladi.

Biz olib borgan tadqiqot ishlari shuni ko'rsatdiki, Texnologiya darslarida o'quvchilarda uchraydigan ikkilamchi nuqsonlar (ruhiy muammolar: diqqatning tarqoqligi, xotira va irodaning sustligi, so'z-mantiqiy tafakkurning etishmasligi, qaysarlik, odamovilik, o'jarlik, qo'rqqoqlik, dangasalik, giperaktivlik ...)ning korreksiya ishlari orqali bartaraf etilishi yoki ma'lum darajada yumshatilishiga erishish imkoniyati boshqa umumta'lim fanlariga nisbatan ko'proqdir. Chunki bu darsda o'quvchilarning turli faoliyatlarini birdaniga safarbar etish mumkin.

Dars erkin ijodiy muhitda tashkil etilsa, o'quvchilar o'zlarini tabiiy vaziyatda qanday tutsalar, darsda ham shunday tutish mumkinligini xis qilgan holda topshiriqlarni bajaradilar. Bu esa ularda o'quv va harakat motivatsiyasini kuchaytiradi. Shuning uchun o'quvchilarda uchraydigan ayrim jismoniy va ruhiy muammolar o'z-o'zidan tadrijiy tarzda sezilmay qolishiga erishiladi. O'quvchilar o'zlarini to'liq safarbar etishga o'rganadilar. Tajriba-sinov ishlari kar va zaif eshituvchi o'quvchilarni ijtimoiy hayotga tayyorlashda muhim darslardan sanalgan Texnologiya darsiga qator zamonaviy yondashuvlarni tatbiq etish lozimligini ko'rsatdi. Olib borilgan ilmiy tadqiqot ishlarimizning o'rgatuvchi tajriba-sinov ishlari davomida "Texnologiya" darsi mazmuni va uni tashkil etish shakllariga qator zamonaviy yondashuvlarni tatbiq etishga va samarali natijalarga erishishga muvofiq bo'ldik. Jumladan:

1. Darslarda o'quvchilar faoliyatining nafaqat mehnat va texnik, balki iqtisodiy jihatlariga e'tibor kuchaytirildi. Amaliyotda kar va zaif eshituvchi bolalar muntazam davlat qaramog'ida yashab, ta'lim olishga moslashgani bois, maktabni bitirgandan keyin ham shu kabi ko'maklarga muhtojlik sezmoqdalar. Bu holatning bosh sababi maktab ta'limi davrida kar va zaif eshituvchi bolalarga mehnat qilish va unga haq olish yo'llari etarlicha o'rgatilmayapti. Bundan tashqari darslarda o'quvchilarga tayyorlangan buyumning hayotdagi o'rni va undan foydalanishning turli yo'llari haqida zarur ma'lumotlar berilmagan. Biz tatbiq etgan tizim asosida o'quvchilar tanlangan ashyolarning sifati va qiymatiga baho berishga o'rgatildilar. Masalan, o'quvchilar mato bilan ishlaganlarida bozorga sayohat uyushtirilib, aynan

ular darsda foydalangan matoning baxosi va sifatini o'rganish topshirig'ini bajardilar. Bundan tashqari darsda tayyorlangan buyumga shu matodan qancha sarflanganini hisoblashga erishdilar.

Mehnat darsi mazmuni ishlab chiqarish, buyum tayyorlash, ish qurollaridan foydalanish, vaqtni taqsimlash, natijalarni oldindan ko'ra bilgan holda ishni rejalashtirish kabi vazifalarni ko'zda tutishi uning izchillik, ketma-ketlilik, natijalarning kafolatlanishi, inson (o'quvchi)-vaqt-texnika (jihozlar, ashyolar, tayyorlash usul va vositalari) tushunchalarining integratsiyasini ifodalovchi "Texnologiya" nomi bilan atalishiga asos bo'ldi. Ma'lumki, kar va zaif eshituvchi yoshlarning mustaqil hayotda o'z o'rnini va mavqeiga ega bo'lishi va jamiyatga samarali uyg'unlashuvi uchun ijtimoiy ko'nikma va malakalar talab etiladi. Masalan, o'z kuni va ishlarini rejalashtirish, yaqin va uzoq muddat uchun maqsad belgilash va unga erishish yo'llarini topish hamda tanlash, o'z-o'zini baholash, o'zini namoyon qilish, o'zida mavjud muammolardan (eshitmaslik va uning oqibatida nutqning yo'qligi yoki og'zaki so'zlashish imkoniyatiga ega bo'lmaslik) uyalmaslik, o'zining kundalik ehtiyojlarini aniqlashtirish va ularni qondirish choralarini ko'rish kabilar kar va zaif eshituvchilarning sog'lom kishilar orasiga uyg'unlashib ketishi hamda turli munosabatlarda faol ishtirok etishlari uchun zarur ko'nikmalar hisoblanadi. Aynan mehnat darslari jarayonida bu ko'nikma va malakalarning shakllanishi uchun keng imkoniyat yaratiladi. Texnologiya darslari kar va zaif eshituvchi o'quvchilarda ijodkorlikni rivojlantirish, ularni buyum va uni tayyorlash jarayonini loyihalashga o'rgatishni nazarda tutadi.

Mehnat ta'limi darslarida o'quvchilarni iqtisodiy, huquqiy, ekologik bilimlar bilan qurollantirishda treninglar, mashqlar, taqdimotlardan foydalanish ijobiy natijalarga erishish imkonini berdi.

2. O'quvchilar dars davomida ish qurollari, ish joyi va ashyolarning ekologik toza va xavfsizligini baholashga o'rgandilar. Inson salomatligiga salbiy ta'sir etuvchi ashyolar, qurollar va texnik vositalarni ajratishga yo'naltirilgan topshiriqlarni bajardilar. Buning uchun sifatli mato va mahsulot tanlashga

o'rgatuvchi videodarslar, korxona va sexlarga ko'chma darslar, mutaxassislar bilan uchrashuvlar tashkil etildi.

3. Texnologiya darslari jarayonida axborot-kommunikatsion hamda mahsulot tayyorlashning turli texnologiyalaridan foydalanish tavsiya etildi. Masalan, tajriba-sinov ishlari jarayonida o'quvchilarga oddiy talqon tayyorlashning ommabop va zamonaviy (blender) usullari, pichoq charxlashning oddiy va texnik usullari, oyoq kiyimini ta'mirlashning oddiy va zamonaviy (maxsus elimlar va tikish yo'llari, charmdan boshqa narsalar chiqarish) yo'l va vositalari, meva-sabzavotlarni tozalash va to'g'rashning oddiy va zamonaviy usullari, o'z qo'llari bilan sovg'a tayyorlash va uni o'rashning turli yo'l va usullarini videotasmalarda yoki amalda namoyish etildi. Natijada kar va zaif eshituvchi o'quvchilarning ko'rish analizatoriga tayangan holda ish bosqichlari va usullarini qisqa vaqtda va oson o'rgatilishiga erishildi.

4. Mehnat ta'limining ijtimoiy jihatida uning mazmunida oila, milliy va mintaqaviy an'analarning mavjudligi bilan ham ahamiyatlidir.

Biz tajriba-sinov ishlari davomida o'quvchilarning oilalari bilan quyidagi tadbirlarni tashkil etdik:

- tajriba-sinov ishlarida ishtirok etgan oilalarga o'z oilasida farzandi bilan birga biror buyumni tayyorlashi yoki eski kiyimni ta'mirlashi taklif etildi;
- imkoniyatlardan kelib chiqqan holda oilada farzandi bilan birga milliy taom tayyorlash jarayonini telefon yoki boshqa texnik tasvirga olish taklif etildi;
- ma'lum oilani tanlagan holda bahorgi ishlar uchun oilalar va o'quvchilar bilan birgalikda hashar uyushtirildi;
- oilalarda kar va zaif eshituvchi o'quvchining kun tartibini rasmlarda yoki yozma shaklda tayyorlashi so'raldi.

Berilgan topshiriqlar o'quvchilarga oilada xalol mehnatning roli, har bir insonning o'z yumushi bo'lishi kerakligini tabiiy vaziyatlarda his qildirish imkonini berdi. Bu kabi ma'lumotlarni o'quvchilar darsliklar va darslarda nazariy jihatdan o'zlashtirib kelayotgani bois, aksariyat katta sinf o'quvchilari shu yo'nalishda berilgan savollarni hatto tushunmadilar. Ular uchun sanab o'tilgan tushunchalar

mavhum va o'zlashtirilishi qiyin bo'lgan tushunchalar hisoblanadi. Tajriba-sinov ishlari natijalari o'quvchilarga xashar, isrof qilmaslik (eskini ta'mirlash, chiqindilardan ham foydalanish), halollik, mehnatsevarlik kabi tushunchalarni hayotiy vaziyatlarda va ularning ishtirokida oson tushunilishini ko'rsatdi. Ayniqsa, bu vaziyatlarda o'quvchilar bevosita ishtirok etsalar, unda ular bu tushunchalarni o'zlaridan o'tkazgan holda bir umrlik tajriba sifatida o'zlashtiradilar.

5. Texnologiya fani o'qituvchilari uchun o'quvchilar bilan differensial ishlashning ahamiyatini ochib beruvchi tavsiyalar ham amaliyotga tatbiq etildi. Jumladan, o'quvchilarning aqliy va nutqiy imkoniyatlariga qarab, topshiriqlarni tayyorlash va berish dars samaradorligini oshirishga yordam berdi. Shunda o'quvchilarning har bir ma'lum bir buyumni tayyorlashda qisman bo'lsa ham o'z ishtiroki borligini xis qilishga erishdilar. Odatda, o'qituvchilar bu darsda mehnat harakatlarini yaxshi bajaradigan o'quvchilar bilangina ishlab, qolgan o'quvchilarga mavzudan tashqari oson topshiriqlar berishga odatlanib qolganlar. Bu vaziyat didaktik, psixologik va metodik jihatdan noto'g'ri. Chunki har bir bola shu darsning ishtirokchisi ekan, aynan shu dars mavzusini o'zlashtirish huquqiga egadir. Bu uning ijtimoiy huquqi hisoblanadi. Biroq o'qituvchilar murakkab (ikkitadan ko'proq muammolari mavjud: kar qo'shimcha aqli zaif, kar qo'shimcha zaif ko'ruvchi, kar qo'shimcha serebral falajlikka ega...) muammolari bo'lgan o'quvchilarning darsda jim va boshqalarga halaqit bermasdan o'tirishiga erishishining o'zi katta ish deb hisoblaydilar. Bir tomondan qaralsa, darhaqiqat o'ta ishlash qiyin bo'lgan o'quvchilarning darsdagi ma'lum harakatlari ham katta yutuqdek ko'rinadi. Agarda o'quvchining shu harakatlarini dars mavzusi doirasida kichik sodda topshiriq shaklida yo'naltirilsa, unda sinfdagi boshqa o'quvchilar qatori bu o'quvchi ham darsning haqiqiy ishtirokchisiga aylanadi. Albatta bu jarayon o'qituvchidan katta sabr, mashaqqatli mehnatni talab etadi.

Amaliyotdagi kuzatishlar va olib borilgan tajriba-sinov ishlari davomida biz o'qituvchilarga o'quvchilarning quyidagi toifalarini ajratishni tavsiya qildik, ya'ni sinf o'quvchilarini mehnat darslaridagi ishtirokiga ko'ra quyidagi toifalarga ajratish mumkin:

1. Mehnat harakatlarini bajarishga dastlabki urinishda uddasidan chiqa oladiganlar. Bunday o'quvchilar orasida umuta'lim fanlarini muvaffaqiyatli egallaganlar ham yoki boshqa fanlarga qiziqishi past o'quvchilar ham bo'lishi mumkin. Biroq ular mehnat darslarida talab etiluvchi harakatlarni qirqish, elimlash, o'lchash, rasm chizish va buni muvaffaqiyatli bajarishlari mumkin. Bunday o'quvchilar darsdan tashqari paytlarda tabiiy vaziyatlarda ham bu harakatlarni o'z-o'zidan qiziqqanidan bajarishga kirishadilar.

2. Mehnat harakatlarini baho uchun tez va samarali bajaradiganlar. Bunday o'quvchilar darsda topshiriqlarni bajarish talab etilgandagina faol ishtirok etadilar va darsdan tashqari paytlarda ularda bu harakatlarga qiziqish mavjud bo'lmaydi.

3. Darsda so'ralgan harakatlarni bajarishga intiladilar, biroq qo'shimcha yordam talab etiladi. Dars davomida bunday o'quvchilarga mehnat harakatlarini takror-takror holda bajartirish talab etiladi. Topshiriqlarni takroran va mustaqil bajartirish buyum tayyorlashda yohud ishni boshlash va oxiriga etkazishda muvaffaqiyatga erishish omilidir.

Dars jarayonida o'quvchilarning bajarishlari lozim bo'lgan topshiriqlarni tanlashda ham tabaqalashgan yondashuvlarga rioya etildi. Ayniqsa, ushbu fan bo'yicha tuzilgan dasturda o'quvchilar egallashlari kerak bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalarni har bir chorak uchun alohida ajratib berilgani o'quvchilar tomonidan egallanishi lozim bo'lgan tushunchalar zahirasini nazoratga olish imkonini berdi. Bu o'z navbatida o'quvchilar egallashi kerak bo'lgan bilim, ko'nikma, malakalarning aniq ko'rsatkichlarini ifoda etadi. Natijada o'quvchilarning ushbu fan bo'yicha bilim, ko'nikma va malakalarini joriy, oraliq va yakuniy baholash uchun tayyor topshiriqlar mazmunidan foydalanishga erishildi. Har bir mavzu bo'yicha ish turlari alohida ajratib berilgan bo'lib, ular ikki bosqichda amalga oshiriladi. 1-bosqich o'qituvchi tomonidan, 2-bosqich tarbiyachi tomonidan amalga oshirildi. O'quv yili boshida o'qituvchi va tarbiyachi birgalikda har bir mavzuning tegishli qismini yillik rejasida belgilaydi. Tarbiyachi o'qituvchining ishini mantiqan va tizimli davom ettiradi.

O'qituvchi va tarbiyachi har bir dars davomida egallanishi zarur bo'lgan majburiy va amaliy nutqiy materiallarni ko'rgazmali ravishda tayyorlashi talab etildi. Bu jarayon murakkab va ashyoviy ta'minot talab qildi. Chunki bolalarga har bir aniq, mavhum tushunchalarni berish ko'rgazmalilik va tabiiylikni talab qiladi.

1925-yil eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalar ta'limi bo'yicha Xalqaro konferensiyada A.S.Vigotskiy shunday ta'kidlagan: "Aynan mehnat ta'limi va tarbiyasini qo'llash karlarni o'qitishdagi barcha qiyinchiliklardan chiqib ketish yo'lidir. Asosiysi, mehnat tarbiyasi hayotga eng yaxshi yo'l, u ilk yoshdanoq hayotda faol ishtirok etish uchun garovdir. Shuning uchun u kar bolani barcha narsa, muloqot, nutq, idrok bilan qurollantiradi".

Eshitishida muammosi bo'lgan bolalarning (Kar) mehnat ta'limi quyidagi davrlarga ajratildi:

Boshlang'ich davr: Qo'l mehnati yoki elementar texnologiya davri. Bu davrda o'quvchilarda oddiy texnologik ko'nikma va malakalar-hayotiy kompetensiyalar (chizish, o'lchash, tanlash, qirqish, sanash, topish, chamalash, buklash, yassilash, to'plash, solish, kerakli nuqtani topish, teng ikkiga, uchga buklash, birdaniga bir nechta (tahlangan) qismni qirqish, ochish, epish, kirgizish, biriktirish, bo'yash, kesish, elimlash, tikish, rejalashtirish, ajratish, vaqtga, namunaga qarab ishlash, o'z ishini nomlash va tanish, xisobot berish, boshlagan ishni oxiriga yetkazish yoki kelgan joyidan davom ettirish, mustavil va jamoada ishlash, o'zgalar mehnatini kuzatish va qadrlash, tejamkorlik, ijodiy yondashish, harakatlarni silliq va tekis bajarish...) tarkib topadi: tayyorlov-4-sinflar (zaif eshituvchilar), tayyorlov-5- sinflar (karlar); umumtexnik tayyorgarlik hamda hayotiy mehnat malakalarini egallash: 5–8 sinflar; kasb egallash davri: 9–12 sinflar.

Elementar texnologiya (qo'l mehnati) kar o'quvchilarga hayotiy borliqni tez va mukammal anglash imkonini beradi. U bola shaxsini, uning intellektual kuchi, bilish imkoniyatlarini rivojlantirishda katta ahamiyat kasb etadi. Mehnat faoliyatini bajarish jarayonida kar o'quvchilar o'zining jismoniy va aqliy kuchini ongli boshqarishga o'rganadi, bu ularning umumiy faolligi va ishchanligini oshiradi. Kar

bolalar maktabida mehnat darslarining didaktik ahamiyati kattadir. Mehnat darslariga qo'yiladigan talablardan biri uni boshqa o'quv fanlari bilan aloqa o'rnatishidir. Bir tomondan mehnat darslari boshqa o'quv fanlarida zarur bo'ladigan ma'lum bilimlarni beradi hamda boshqa darslarda olingan bilimlarni mustahkamlaydi. Bunday aloqani o'rnatish pedagogik jarayonni to'g'ri va samarali tashkil etishda muhim omildir. Elementar texnologiya nafaqat ta'limiy ahamiyat kasb etadi, balki o'quvchi shaxsini tarbiyalashga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. U qiyinchiliklarni bartaraf etishga majbur etadi (buyumlarni yasash jarayonida), bu iroda va qat'iyatlilikni tarbiyalashga sabab bo'ladi. O'quvchilarda jamoa faoliyati, o'rtoqlik o'zaro yordam va intizomlilik malakalarini tarbiyalaydi. Bunga bog'liq holda o'quvchi ish jarayonida "men"ni emas, balki "biz"ni ko'ra olishini ko'zda tutuvchi jamoa bilan ishlash, juft bo'lib ishlash ish turlarini qo'llash lozim. Qo'l mehnati darslari uchun alohida xona ajratilishi maqsadga muvofiq. Mazkur xona mavjud bo'lmasa, o'quvchilar partalarida osma doskalar va ish qurollari saqlanadigan qutilar bo'lishi kerak.

Mehnat darsi tashkiliy bosqichdan boshlanadi. Keyin o'quvchilar o'qituvchining turli vazifalarini bajaradi: ***plastilinni yumshat, dumaloq yasa, yassila, rangli qog'ozdan uchburchak, doira va to'rtburchak qirq va kartonga yopishtir***. Har bir harakat nutqiy ifoda bilan paralel olib boriladi. O'tilgan mavzuni takrorlashga yo'naltirilgan mazkur vazifalarni bajargandan so'ng, o'qituvchi darsda o'quvchilar nimalar bilan band bo'lishini e'lon qiladi. O'qituvchi dastlab ish qurollari va materiallarni mustaqil yoki o'qituvchi yordamida tanlashni so'raydi. So'ng buyumni yasash jarayonini o'z harakatlari bilan ko'rsatadi, o'quvchilar uning harakatlarini takrorlaydilar. Ishni bajarish ketma-ketligi doskadagi yozuvda, 2-sinfdan o'quvchilar daftarlarida o'z aksini topishi kerak.

Mehnat ta'limining turli bosqichlarida vazifalar turlicha hal etiladi. 1-bosqichda (1-5-sinflar) o'quvchilar mehnat savodxonligini, oddiy mehnat harakatlari: qirqish, yopishtirish, surtish, o'lchash, ish jihozlari va tayyorlanadigan buyumlarning nomini aytish va daktil-og'zaki tarzda aytish, aytganlarini yozish; 2-

bosqichda (5-8 sinflar) umumiy texnik tayyorgarlikni: o'g'il va qiz bolalar mehnati yo'nalishlari bo'yicha mehnat harakatlarini bajarish, aytish, hisobot berish; 3-bosqichda (9-11 sinflar) kasbiy mehnat bilimi va tegishli malakalarni egallaydilar. Mehnat darslari jarayonida o'quvchilarga qog'oz, karton, gazlama va tolali matolar, tabiiy ashyolar bilan ishlashda tejamkorlik hislatlarini singdirib borish uchun sharoit keng yaratildi. CHiqindilardan ham ma'lum shakllar va buyumlar yasash talab etilganda, o'quvchilar hayotda har bir narsaning qadriga etish, ularni asrash kabilarni tushunib etadilar.

Yuqorida sanab o'tilgan ushbu darsning imkoniyatlari amaliyotchilar tomonidan to'g'ri anglamaganligi bois nazorat sinflarida **quyidagi metodik to'siqlar kuzatildi:**

1. Maktab-internatlarda predmetli amaliy ta'lim darsi, uning mohiyati etarlicha tushunilmayotganligi sababli, uni tashkil etish bo'yicha yosh o'qituvchilarga metodik yordam tashkil etilmayapti.

2. Amaliy ta'lim darsini sof mehnat darsi sifatida tushunilib, o'quvchilarga faqat mehnat operatsiyalarini bajartirish bilan cheklanish kuzatilmoqda. Predmetli amaliy ta'lim darsining tilni o'rganishga yo'naltirilgan korreksion jihati unutib qoldirilmoqda.

3. Aksariyat o'qituvchilar predmetli amaliy ta'lim darsining boshqa fanlar bilan uyg'unligiga e'tibor bermayaptilar. Natijada "Predmetli amaliy ta'lim" darsliklarida berilgan fanlarga oid topshiriqlarning bajarilishiga erishish chetda qolib ketmimoqda.

Predmetli amaliy ta'limning mohiyati uning maqsad va vazifalari orqali tavsiflandi.

Predmetli amaliy ta'lim davomida o'quvchilar:

- o'zlashtirilishi qiyin bo'lgan mavhum hamda kundalik hayotda uchraydigan vaqt va makon tushunchalarini o'zlashtiradilar;

- miqdor, sifat belgilari kabilarni amaliy faoliyat jarayonida bevosita predmet ustida ishlash davomida egallaydilar;

- lug‘at tarkibiga kiritilgan har bir so‘zni amalda, tegishli nutqiy kontekstda qo‘llaydilar;

- o‘quvchilarning mayda qo‘l motorikalari rivojlantiriladi;

- mehnat malakalari: qirqish, buklash, elimlash, chizish, sanash, o‘lchash, bo‘yash, biriktirish, o‘rnatish kabilar rivojlantiriladi;

- ish joyini toza tutish, tejamkorlik, o‘rtog‘i bilan birga ishlash ko‘nikmalari shakllandi;

- o‘zi va o‘rtoqlari ishlarini baholashga va tavsiflash, ta’riflashga o‘rganadilar;

Predmetli amaliy ta’limning nutqiy yo‘naltirilganligi o‘quvchilarni ijtimoiy hayotga tayyorlashda muhim pedagogik-psixologik omil hisoblanadi;

Predmetli amaliy ta’lim darslarida dialogik nutqni rivojlantirish tabiiy nutqiy vaziyatlarda amalga oshadi. Ya’ni:

- murojaatlar (iltimos-xohish, istak);

- buyruqlar ;

- ish yuzasidan hisobot (og‘zaki, daktil, yozma);

- talabnomalar (kerakli jihozlarga);

Masalan, buyruq ma’nosidagi instruksiyalarda aniq bir harakatni yoki topshiriqni bajarish amalga oshiriladi.

Masalan: ***Senga nima kerak? dan so‘ra. Senda qalam bormi?***

Sendabormi?ga ber.

Olma rasmini chiz. Olma rasmini chizdim. Bo‘yadim.

To‘g‘ri o‘tir. Sekin gapir.

Mana,ni ol.

Senga nima kerak? Yoz.

Predmetli amaliy faoliyatdan foydalanish quyidagi vazifalarni hal qiladi: 1. Umumta'lim predmetlarini o'qitish uchun asos sifatida kundalik-maishiy tushunchalarni shakllantirish. O'quvchilar har xil narsalarni yasash bilan ***o'ng, chap, orqada, tepada, yonida, o'rtada, so'ra, ayt, ber*** kabi so'zlarni hamda so'z birikmalarini o'rganadilar. Ular o'rgangan va bevosita amalda qo'llagan nutq materiallari "Nutq o'stirish", «Yakka mashg'ulot» va boshqa darslarda uchraydi. Ayrim tushunchalar bevosita predmetli munosabatda o'zlashtiriladi. Masalan: «bo'lak», «yarim», «andoza»... .

Andoza qirqing.

Qog'ozni buklang. Qirqing.

Bir bo'lagini oling.

Predmetli amaliy ta'lim darslarida matematik tushunchalar ham o'zlashtirilib, ular aynan matematika darslarida mustahkamlanadi.

Ikki qismga bo'ling. ..ni ikki qismga bo'ldim.

Teng ikkiga bo'ling. Plastilinni teng ikkiga bo'ldim.

Uchburchakni qirqing. Uchburchakning chetini qirqdim.

Doirani bo'yang. Doirani chizig'igacha bo'yadim.

2. O'zbek tilini muloqot vositasi sifatida o'rgatish.

Ushbu vazifa tabiiy vaziyatlarda nutqiy sharoitning yaratilishi orqali amalga oshiriladi. Bolalar bilan jamoa bo'lib, biror predmet yasalayotganda predmetlar, harakatlarni nomlashga, o'qituvchi yoki o'rtog'iga savol, iltimos bilan murojaat qilishga, ishga munosabat bildirishga ehtiyoj tug'iladi.

O'quvchilar tayyorlov sinflaridayoq so'zli muloqotga ehtiyojni anglab etadilar. - ***So'rang, kimda bor? Menda ..., ... yo'q. Menga ..., ... bering.***

Nutq ma'nosini tushunish, undan foydalanish boshqa vaziyatlarga o'tadi va boshqa darslarda ham amalga oshiriladi. Predmetli amaliy ta'lim uchun tanlangan va o'zlashtirilgan nutqiy material boshqa o'quv predmetlari mazmunini ham tashkil

etadi. Bu bilan predmetli amaliy ta'limning boshqa umumta'lim predmetlari orasidagi uyg'unligi belgilanadi.

3. O'quvchilar tafakkuri, dunyoqarashini rivojlantirish.

Predmetli amaliy ta'lim darsidagi har qanday amaliy faoliyat o'zida tafakkur jarayonlari (analiz-sintez, umumlashtirish, taqqoslash, ajratish)ni mujassam etadi. O'quvchi ob'ektni qabul qiladi, tahlil qiladi, uni qismlarga ajratadi, qismlardan qaysilari asosiy va ikkinchi darajaliligini aniqlaydi, o'zaro taqqoslaydi. Bulardan tashqari mazkur darslarda o'quvchi mantiqiy tafakkurining rivojlanishiga sharoit yaratiladi. Bolalar o'z predmetli-amaliy faoliyatini ongli ravishda rejalashtiradilar (og'zaki, yozma ravishda).

4. Turli (mehnat-kasbiy) malaka va ko'nikmalarni shakllantirish:

- mehnat-harakatlar ketma-ketligini aniqlaydi;
- ish uchun kerakli uskuna va jihozlarni ajratadi;
- ob'ektni qismlarga bo'ladi;
- material-buyum ishlab chiqaradi, tayyorlaydi;
- qismlarni yig'adi, sozlaydi;
- mehnatni tashkil qilish va mehnat qilish madaniyati ishlab chiqiladi.

5. O'quvchilarni shaxs, komil inson sifatida tarbiyalash. Predmetli amaliy ta'lim darslarida kichik sinf o'quvchilari mehnatga psixologik, jismoniy jihatdan tayyorlanadi. Amaliy faoliyat davomida mehnatsevarlik, intizom, mas'uliyat kabi jihatlar tarbiyalanadi. Har bir o'quvchining o'qituvchilar va o'rtoqlari bilan munosabatga kirishishi orqali ularda shaxs sifatleri shakllanib boradi. Bundan tashqari axloqiy sifatlar, qoidalarga rioya qilish ko'nikmalari tarkib topadi.

Har bir dars uchun dastur talablari asosida tushuncha va tasavvurlar, jumlar belgilanadi hamda ularning egallanishi majburiydir. Har bir chorak uchun o'quvchilar egallashi kerak bo'lgan malaka (nutqiy, fikrlash, mehnat, faoliyatni

tashkil qilish)lar alohida ajratiladi. Dastur talablarini o'quvchilar yil davomida ketma-ket turli buyumlar yasash, ya'ni har xil faoliyat jarayonida o'zlashtiradilar.

Har bir dars mavzusi dastur talablariga mos kelishi shart. Talablarda buyum va uni tayyorlash bo'yicha faoliyat turlari, o'quvchilar egallashi kerak bo'lgan nutqiy material (lug'at, so'z birikma, gap)lar ko'rsatiladi. Quyida o'qituvchilar uchun dars mavzusini o'quvchilarga etkazishning bir qancha usullarini keltiramiz.

Predmetli amaliy ta'lim darslaridan ko'zlangan didaktik vazifalar

1. **Rivojlantiruvchi vazifa.** Kundalik maishiy tushunchalar egallanadi, umumiy rivojlanish amalga oshiriladi, dunyoqarash kengayadi.

2. **Nutqni rivojlantirish.** Nutqiy muloqot ko'nikma va malakalari shakllanadi. Kar va zaif eshituvchi o'quvchilar uchun nutqiy muloqot zarur ijtimoiy-hayotiy omildir. O'quvchilar nutqni maktabga kelgan kundan boshlab maqsadli va ona tili qonuniyatlari asosida egallay boshlaydilar. Texnologiya darsi esa o'quvchilarga nutqning turli shakllarini amalda qo'llash imkonini beruvchi muloqot maydoni hisoblanadi.

3. **Mantiqiy tafakkurni rivojlantirish.** So'z orqali mantiqiy tafakkur, sabab-oqibatli fikrlash shakllanadi. Bunda har bir ish-harakatning natijasi nimaga olib kelishi, ishni buyumning qaysi qismini tayyorlashdan boshlash kerakligini o'quvchi mustaqil aniqlashi hamda shu asosda ishni tashkil etishiga erishish muhim shartlardandir. Buyum tayyorlanib bo'lgach, uni hayotda qayerlarda ishlatish mumkin, qoldiq materiallardan yana nimalar yasash mumkinligi ustida fikr almashish ham o'quvchilarning mantiqiy fikrlashini rivojlantiradi.

4. **Mehnat-kasbga yo'naltirish.** Qo'l mehnati jarayonida u yoki bu kasbga oid qiziqishlar rivojlanadi. Texnologiya darsida o'quvchilarning jismoniy, aqliy va nutqiy rivojlanishiga bog'liq ravishda ma'lum kasbning oddiy harakatlarini samarali bajara olishini kuzatish mumkin. Ushbu harakatlarni o'quvchilar, ularning yaqinlari va o'qituvchilar sezishi, anglashi va to'g'ri yo'naltirishi muhimdir. Zero o'quvchilarning darsda bajargan harakatlari orqali shu kasbni tanlashga va mehnatga

psixologik tayyor bo'lishiga erishish choralarini ko'rish ta'lim muassasasining muhim vazifalaridan birini tashkil etadi.

5. Tarbiyaviy vazifalar. Ushbu dars o'quvchilarda shaxs sifatleri: sabrli bo'lish, o'rtoqlari va boshqalarga hushmuomalali bo'lish, o'zgalarni tinglash, o'z fikrini asoslashda o'zgalarning shaxsiyatiga tegmaslik, o'zgalar mehnatini qadrlash va o'z mehnatini to'g'ri baholash, kundalik hayotda va jamoada o'rin topish va turli faoliyatlarda samarali ishtirok etish uchun kerak bo'ladigan sifatlarni shakllantirish imkoniyatlarini beradigan ish usullari, turlari va vositalaridan keng foydalanish uchun zarur sharoitlarga egadir.

Quyida tadqiqot davomida sinovdan o'tgan va amaliyotda o'quvchilarning ijtimoiy ko'nikma va malakalarini rivojlantirishga yo'naltirilgan samarali texnologiyalar va ish turlarini sanab o'tiladi.

O'quvchilarning predmetli amaliy faoliyatini tashkil etishda zamonaviy yondashuvlardan foydalanish

Kar va zaif eshituvchi bolalarning aqliy faoliyatini samarali tashkil etish uchun predmetlar bilan bog'liq jarayonga ehtiyoj tug'iladi. Ular har bir tushunchani avvalo, tabiiy vaziyatda, natural holatlarda oson o'zlashtiradilar. Biz aynan mehnat darslari jarayonida bolalarning predmetli amaliy faoliyatini turli zamonaviy yondashuvlar asosida tashkil etish orqali ularni boshqa umumta'lim fanlarini o'zlashtirishga samarali tayyorlash mumkin degan xulosani asosladik. Mehnat ta'limining dastlabki davrlarida darslar o'yin tarzida bo'lishi kerak. O'quvchilarga kerakli asboblarni musiqa asosida tarqatish lozim. Tarqatayotgan bola ishni musiqa bilan boshlab, musiqa tugaguncha tarqatib bo'ladi. O'qituvchi o'quvchilarga bugun musiqa yordamida amallarni bajarishni tushuntiradi. Masalan, 1-sinf "Predmetli-amaliy ta'lim" darsligida shakllar mavzusi mavjud. Shu mavzuni musiqa sadolari hamda o'quvchilarning jismoniy harakatlarini uyg'unlashtirgan holda amalga oshirish mumkin. Buning uchun o'qituvchi sinf o'quvchilarini 3 talikdan tashkil topgan guruhlariga ajratadi. Sinfda 4 ta guruh hosil bo'ladi. Guruhning 1 nafar o'quvchisi o'qituvchi yopiq holda bergan qog'ozdagi shaklni

harakatlari bilan namoyish etadi. 2-o‘quvchi esa bu shaklni tayyorlash uchun kerakli jihoz (qog‘oz va qaychi)ni tanlab, 3-o‘quvchiga beradi. 3-o‘quvchi esa bu shaklning nomini dastlab doskaga yozadi. Harakatni ko‘rsatayotgan o‘quvchi so‘zning to‘g‘riligini ta’kidlaganidan so‘ng 3-o‘quvchi shaklni yasashga (buklash yoki qirqib tayyorlash)ga kirishadi. Bu harakatlar hammasi musiqa sadolari ostida amalga oshiriladi.

Mehnat darslarida o‘quvchilarga ertak asosida buyumlarning xususiyatini tushuntirish ham ijobiy natijalarni ta’minlaydi. Masalan, binolar maketini yasaganda jamoa ishini tashkil etishdan, mavzuga kirish va uni bajarishga tayyorgarlikdan oldin o‘qituvchi ertak tuzib, so‘zlab bersa, o‘quvchilar mavzuga qiziqadilar.

Masalan, *....da bir bino qad ko‘taribdi. Unda ..., ..., ..., lar bor ekan. Binodagining shakli ... , rangi ... , vazifasi lardan iborat ekan.*

Endi siz binoni ichida insonlar nima bilan shug‘ullanishi mumkinligi aytishga harakat qiling.

Boshlang‘ich sinflarda mehnat darslarining maqsadini to‘g‘ri belgilash ularning samaradorligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Dars metodikasi va samaradorligi qo‘yilgan maqsadga bog‘liq bo‘ladi. Dars maqsadi eshitishida muammolari bo‘lgan bolalarning umumiy va nutqiy rivojlanish xususiyatlari asosida belgilanadi.

Mehnat darsi quyidagi bosqichlarda tashkil etiladi:

1. Mehnat faoliyatiga va uni nutqiy ifodalashga tayyorgarlik.
2. Mehnat faoliyati hajmi va jihozlarini aniqlash.
3. Ishni rejalashtirish.
4. Buyumni tayyorlash.
5. Bajargan ishi yuzasidan hisobot berish.
6. O‘quvchilar faoliyatlarini baholash.

Mehnat darslarida buyumni tayyorlash texnologik jarayoni namoyish etilishi muhim uslubiy shart hisoblanadi.

1. Darsga tayyorgarlik:

- dars mavzusi va maqsadini bayon etish;
- buyum tayyorlash rejasini tuzish
- mehnat materiali va ish qurollarini aniqlash;
- mehnat materiali va ish qurollarini tarqatish;
- qisqa savol-javob o'tkazish.

2. Mehnat faoliyati hajmini aniqlash. Bu jarayon turli yo'nalishda amalga oshirilishi mumkin:

- stolga kerakli mehnat materiali va ish qurollari joylashtiriladi (hammasi emas). Bolalardan mehnat materiali va ish qurollarining nomi va bajariladigan ish turini aniqlash talab etiladi;

- ish turi qog'oz, qaychi, elim, al'bom, rangli qog'oz so'zlari ifodalangan jadvallar asosida aniqlanadi. O'qituvchi "***Qirqamiz***", deb bolalarga murojaat qiladi. Bolalar unga mos keluvchi jadvalni olib, mehnat materiali va ish qurollarini tanlaydilar;

- o'qituvchi "***Bizga qaychi va qog'oz kerak. Nima qilamiz?***", deya murojaat qilib ish boshlaydi;

- o'quvchilar ish turini yasaladigan buyum namunasiga qarab aniqlaydilar. Buyumni ko'rsatib ("***Uni nomla***"), nimadan tayyorlanganligini aniqlash taklif etiladi;

- yozilgan ko'rsatma asosida ish turi aniqlanadi;

- yasalishi maqsad etilgan buyum nomini topishmoq orqali topish vazifasi beriladi;

- yasagan buyum nima uchun kerak? U qanday qismlardan tashkil topgan? savollari asosida mehnat faoliyati aniqlanadi.

- jadvallarda ifodalangan ish bosiqchlari ketma-ketligi asosida mehnat faoliyati ob'ekti va ish qurollari aniqlanadi.

3. Ishni rejalashtirish. Ushbu bosqich darsning eng muhim qismi sanaladi. Masalan, olma applikasiyasini tayyorlashdan oldin o'quvchilar ishni nimadan boshlash kerakligini o'ylaydilar. Bu bosqichda o'qituvchining ko'rsatmasini eshitib, o'quvchilar o'zlari mehnat faoliyati davomiyligini bayon etadilar. Masalan,

- *Rangli qog'ozlarni ol.*

- *Olim, qog'ozlarni o'rtoqlaringga ber.*

- *Barno, qara, kimda yo'q, ni dan ol va ... ga ber.*

- *Karim, qaychi va elimni o'g'il bolalarga tarqat.*

- *Buyumning qaysi qismini tayyorlaysan? Keyinchi? Ketma-ket aytib ber.*

4. Bajargan ishi yuzasidan hisobot berish.

O'quvchilarning har bir bajargan ishi yuzasidan og'zaki, yozma shakllarda hisobot berishi talabi darsliklarda ham alohida topshiriq sifatida aks etgan. Ushbu bosqichda hisobot mazmuni buyumning belgisi, vazifasi va uni tayyorlash rejasi hamda jihozlariga oid ma'dumotlarni bildirish bilan ham tavsiflanadi.

Predmetli amaliy ta'lim darslarida yozma nutq ustida maqsadli va tizimli ish olib boriladi. O'quvchilar lug'at daftari va yozuvlar uchun ish daftari tutishlari lozim. Yangi so'zlar bilan ishlashda plakatlar, jadvallar, ko'rgazmali qurollar, rasmlar bo'lishi shart.

Darsning har bosqichi nutq, taffakur va eshitishni rivojlantirish uchun keng imkoniyatlar yaratadi.

Qog'oz va karton bilan ishlash o'quvchilarda rang, shakl sezgisini rivojlantiradi, hayot va tabiat go'zalligini his etishga yordam beradi.

Predmetli amaliy ta'lim darslarida yasalgan buyumlarga oid so'z va iboralar o'qish, ona tili, matematika, nutq o'stirish darslarida foydalanilishi kerak.

Eshitishida muammosi bo‘lgan bolalar nutqni yaxshi egallashlari uchun lug‘at materialini doska va plakatlar, jadvallarda ifodalanadi. Eshitishida muammosi bo‘lgan bolalar yangi tushunchalar bilan tanishgandan so‘ng daftarlarga yozadilar. Mehnat darslarini boshqa o‘quv fanlari bilan bog‘lab o‘tish maqsadga muvofiq. Chunki predmetli amaliy ta‘lim darslarida eshitishida muammosi bo‘lgan bolalar bolalar matematika, tabiatshunoslik, ona tili, o‘qish fanlarida va kundalik hayotdagi so‘zlashuv muloqotida olgan bilim va malakalarini qo‘llaydilar, mustahkamlaydilar. Shuningdek, predmetli amaliy ta‘lim darslarida olingan bilimlar boshqa o‘quv fanlariga jalb etiladi, yasalgan buyumlar ko‘rgazmali qurol sifatida foydalaniladi. Hususan, 1-sinfda qog‘oz bilan ishlashda geometrik shakllarning tayyor qolipidan foydalaniladi. Ular asosida o‘quvchilar shakllarni rangli qog‘ozdan qirqadilar va o‘qituvchi topshirig‘iga ko‘ra oq qog‘ozga joylashtiradilar. Masalan, uchta kvadrat, ikkita doira, bitta uchburchakni tayyorlash orqali o‘quvchilarda matematik bilimlar rivojlantiriladi. Shu tariqa o‘quv fanlari o‘rtasida integratsiyaga erishiladi.

Tadqiqot jarayonida amaliyotga “Refleksiv yondashuv” tatbiq etildi. Predmetli amaliy ta‘lim darslarida iltimos va murojaatni talab qiluvchi “**Refleksiv yondashuv**” sharoitini yaratish maqsadga muvofiq. Bu jarayonda turli tuzilishdagi gaplarni ishlatish lozim. Quyida buning turli shakllarini keltiramiz:

1. Dars mavzusi mevalar bo‘lsa, doskaga mevalarning rasmlari teriladi. Ularning orasiga sabzavot qo‘shib qo‘yiladi. Shunda o‘qituvchi o‘quvchilarga:

- **nima ortiqcha?** yoki **nima noto‘g‘ri qo‘shildi?** savollari orqali murojaat qiladi. O‘qituvchi ularni to‘g‘ri fikrlashga undaydi.

2. Buyum tayyorlash uchun zarur bo‘lgan ish qurollaridan biri kimgadir berilmaydi. Shunda o‘quvchi: **–menda ... yo‘q** - deb aytishi so‘raladi. Shunda o‘qituvchi **–qara, kimda ortiqcha. Shu o‘quvchidan so‘ra** -deb topshiriq beradi.

3. Mavzu yuzasidan savol-javob tashkil etish. Bunda o‘qituvchi o‘quvchilarga kartochkalarda savol, so‘z yoki rasm beradi. Bolalar kartochkada so‘z bo‘lsa, shu so‘z nimani anglatadi, belgilari qandayligini aytadi. Agar kartochkada rasm bo‘lsa,

uning qismlarini aytadi. Agar savol bo'lsa, shu savolga javob aytadi. Uchala harakat umumlashtirilib, yasalmog'chi bo'lgan buyumni tayyorlash bosqichi shakllantiriladi.

4. Mavsumga oid mavzuda dars bo'lsa, maktab hovlisida rasm asosida suxbat olib boriladi.

Bolalarga:

- *rasmda qaysi fasl tasvirlangan?*

- *o'quvchilar nima qilishyapti?*

- *qanday sabzavotlar terib olishyapti?*

O'quvchilar tabiiy predmetlar va rasmlarni tomosha qiladilar, sabzavotlarni nomlashadi. Uning rangi va shaklini aniqlashadi. O'qituvchi sabzavotlarni yasash uchun qaysi rangli plastilindan foydalanish kerakligini aniqlaydi.

- *Men sabzini yasayman. Iltimos, menga sariq plastilin bering.*

- *Men pomidorni yasayman. Iltimos, menga qizil plastilin bering.*

Agar bolalar o'z javobini og'zaki shaklda ifodalay olmasa, ularning diqqati doskadagi: *-Men ... ni yasayman. Iltimos, menga ... plastilinni bering-* yozuvlariga qaratiladi. 1-sinfda yuqorida ko'rsatilgan yozuvlardan foydalanish muntazam ravishda bo'lsa, 2-sinfda o'quvchilar iltimosni mustaqil bayon etishlari mumkin. Dars yakuniga etgach, nutqiy ish olib boriladi. *“Biz nima qildik”* (Biz sabzavot yasadik.) *“Biz qanday sabzavotlar yasadik?”* (Biz sabzi, pomidor, kartoshka yasadik). Bolalarning ishlarini baholashda ehtiyotkorona va ob'ektiv munosabatda bo'lish talab etiladi. Eshitishida muammolari mavjud bolalar tez ta'sirchan bo'lgani uchun, agar bola harakat qilgan bo'lsa-yu, unda hech narsa chiqmagan bo'lsa ham, uni o'z-o'ziga ishonchini so'ndirmaslik uchun rag'batlantirib turish kerak.

Predmetli amaliy ta'lim darslarida nutqni rivojlantirish jarayonida “Kichik o'qituvchi” ish usuli samarali usul sanaladi. Dastlab kichik o'qituvchi rolini nutqi yaxshi bola bajaradi, chunki u tayyorgarlik talab etmaydi. Kichik o'qituvchi darsning boshi, o'rtasi yoki yakunida o'qituvchi o'rnida faoliyat ko'rsatadi.

Masalan, *“Bo‘g‘irsoq”* ertagi maketini yasash jarayonida “Kichik o‘qituvchi” dars boshida ishlaydi. U stol oldida o‘qituvchi o‘rnida turadi, bolalar unga murojat qilishadi:

Biz bugun nima qilamiz?- Biz ertak qahramonlarini yasaymiz.

Qaysi ertak qahramonlarini yasaymiz? - “Bo‘g‘irsoq” ertagi qahramonlarini yasaymiz. Kimni yoki nimani yasaymiz? - Biz bo‘g‘irsoq, quyon, ayiq, tulkini yasaymiz. Bo‘g‘irsoq qanday rangda? - Sariq rangda.

Tulkini yasash uchun qanday plastilin kerak?- sariq va jigarrang plastilin kerak.

Shu tariqa kichik o‘qituvchi faoliyati yakun topadi va o‘qituvchi darsni o‘zi davom ettiradi. “Kichik o‘qituvchi” faoliyati vaqti asta–sekinlik bilan uzayadi va butun dars davomida bo‘lishi mumkin. Bu ish turida bolalar mehnat qilish, so‘zlashish, fikrlashga o‘rganadi. Demak, mehnat faoliyatida hayotiy bilim, ko‘nikmalarni rivojlantirish bilan birga nutqiy malakalarini shakllantirish uchun keng imkoniyatlar yuzaga keladi.

Ushbu dars davosida o‘quvchilarning nutqiy zaxirasi intensiv rivojlanishi uchun zamin yaratiladi. Aynan 1-2-sinflarda kar va zaif eshituvchi bolalarning **nutqiy akseleratsiya** davri hisoblanadi. Chunki bu davrda yangi so‘zlar va tushunchalarni o‘zlashtirishga katta e‘tibor qaratiladi. **Nutqiy akseleratsiya** o‘quvchilarda nutq boyligining muttasil rivojlanishini ko‘zda tutadi. O‘qituvchi va tarbiyachilarga nutqiy akseleratsiya yondashuvining mohiyati tushuntirib berildi. Bu yondashuv orqali o‘quvchilarga beriladigan nutqiy material tizimli shakllantirilishiga erishildi.

Mehnat darslari uchun nutqiy materiallar quyidagi turlarga bo‘linadi:

1. O‘quv fanlarida egallangan bilim, ko‘nikma va malakalarga asoslangan tushunchalarni mustahkamlashga mo‘ljallangan nutqiy material. Ona tili yoki matematika darslari uchun olinadigan nutq materiali matnlar, masalalar, mashqlar mazmunida uchraydigan tanish va notanish so‘zlar hisoblanadi. Predmetli amaliy ta’lim darslarida esa, ular buyum tayyorlash jarayonida kerak

bo'ladigan so'zlar, so'z birikmalari, gaplar hisoblanadi. Bu nutqiy material tarkibida so'z turkumlarining barchasiga oid murojaatlar ishtirok etadi. Bundan tashqari turli fanlarga oid so'zlar, tushunchalar, terminlar qatnashishi tabiiy. Shuning uchun predmetli amaliy ta'lim darsini barcha fanlarni o'zlashtirishga zamin hozirlovchi va nutqiy materialni amaliyotga tatbiq etish uchun mashq maydoni deb tavsiflash mumkin.

2. O'quvchilarning o'zaro muloqotini tashkil etuvchi nutq materiali. Har bir murojaat ma'lum konstruksiyali gaplardan tashkil topadi. Masalan:

- *iltimos, menga ... bering. ... opa, menda ... yo'q;*

- *maylimi men savol (javob) bersam?;*

- *.... dan 2 ta bor, men ... dan 1 ta ... ni olsam maylimi?*

Shu kabi gap, murojaatlar qurilishi kartochkalarda konvertli taxtada so'zlarni tiqib qo'yish holatida namoyish etilishi lozim. Chunki gaplarning tuzilishini har xil joylashtirish orqali o'quvchilarga —*so'zlar to'g'ri turibdi-mi?, kim to'g'ri joylashtiradi-* kabi topshiriqlar bergan holda ularni og'zaki murojaatlarga tayyorlanadi. Shu tarzda o'qituvchi va o'quvchilarning o'zaro muloqoti uchun zarur so'z va gaplar faol nutqqa kiritiladi. Bunda topshiriqlar, muloqotga undash, yordam uchun iltimos qilish, ishni baholash, iltimos, ish qurollari va materiallarni so'rash va ish natijalari yuzasidan hisobotlarni berganda zarur jumlar o'rinli qo'llanilishiga erishiladi.

3. Kundalik hayotda uchraydigan so'z va iboralardan tashkil topgan nutqiy material. Har bir dars yuqorida keltirilgan vazifalarning ikki yoki uchtasining bajarilishini ko'zda tutadi. O'qituvchi dars nihoyasida ko'zlangan maqsadlarga erishilganlikni tekshiradi.

Amaliyotga maqsadga erishish uchun dars vazifalarini ajratishni tavsiya qildik, ya'ni:

1. Darsda bajarilishi lozim bo'lgan ta'limiy (bilim berish) vazifalar.

2. Darsda o'quvchilarning shaxsiy sifatlari va bilimni mashqlarda qo'llashga yo'naltirilgan tarbiyaviy vazifalar.

3. Darsda o'quvchilarning hayotiy ko'nikmalarini rivojlantirishga va o'zlashtirilgan bilim, egallangan ko'nikmalarni mustaqil qo'llashga undovchi korreksion-rivojlantiruvchi vazifalar.

Ta'limiy vazifa asosan o'quvchilarga etkazilishi kerak bo'lgan tushuncha, bilim, ko'nikmalarni, ya'ni ma'rifiy yo'nalishni belgilaydi.

Tarbiyaviy vazifalar esa, asosan o'quvchilarga berilayotgan bilimlar asosida shakllanadigan ko'nikmalarni va ma'naviy yo'nalishdagi tushunchalarning rivojlanishini belgilaydi. Korreksion-rivojlantiruvchi vazifa esa, ham ta'limiy, ham tarbiyaviy vazifalar asosida nuqsonni tuzatish, yumshatishga yo'naltirilgan ijtimoiy ko'nikmalarni nazarda tutadi.

Predmetli amaliy ta'lim darslarida faoliyatni tashkil qilishning turli shakllaridan foydalanish tavsiya etiladi:

1. O'qituvchining sinf bilan yalpi (frontal) ishi.
2. "Kichik o'qituvchi" yoki "Assistent" bilan ishlash.
3. Guruh bo'yicha ishlash.
4. Juftlik bilan ishlash.
5. O'quvchilarning yakka ishlashi.

Faoliyatni tashkil qilishning har bir shakli o'z maqsad va vazifalariga ega hamda o'qitishning aniq bir vazifasini hal qilish uchun qo'llaniladi. Topshiriqlar o'zida buyumni yasash uchun muhim bo'lgan talablar, jarayon (operatsiya)larni mujassam etadi. Ish quyidagicha kechishi mumkin. Bunda o'qituvchi avval 1 ta topshiriq beradi, o'quvchilar uni bajaradilar yoki o'qituvchi birdaniga bir nechta topshiriq berishi va o'quvchilar uni birin-ketin bajarishlari mumkin. Topshiriqlarning nutqiy bezagi predmetli amaliy ta'lim va nutq o'stirish bo'yicha dastur talablaridan kelib chiqadi. Topshiriqlar og'zaki va yozma ravishda (doskada yoki kartochkalarda) berilishi mumkin. Bunda o'quvchilarning topshiriqlarni to'g'ri bajarishlarini nazorat qilish zarur, chunki bajarish orqali

o'quvchilarda tushunchalar shakllanadi, atrofdagilar nutqini tushunish rivojlantiriladi.

Rasm yoki chizma asosida topshiriq bajarish. (boshlang'ich sinfda). Bu ish turi darsga o'yin vaziyatini olib kiradi. U ko'pincha mozaika va maket yasashda qo'llaniladi. O'qituvchi biror predmet tavirlangan rasm yoki naqshni ko'rsatadi va olib tashlaydi. Bolalar xotiraga tayanib ish bajaradilar. Ishni tugatgach, nima qilgani, ish uchun nimalar kerak bo'lgani haqida hisobot beradilar.

“Xuddi shunday qil” topshirig'ini bajarish. (5-9-sinflar). Buyum namunasi ko'rsatilgach, uning tayyorlanishi haqida hikoya, matn o'qiladi. Bolalar ishni matn mazmuniga ko'ra bajaradilar.

“Kichik o'qituvchi” bilan ishlash usuli. Interfaol usullardan biri sifatida ushbu usul amaliyotda o'zining samarali natijalarini ko'rsatdi. Chunki bu usul asosida o'tkazilgan darslar jarayonida har bir o'quvchi o'qituvchi roliga bo'lib, o'zini erkin his qilishga, boshqalarga fikrini asosli o'tkazishga, boshqaruvchilik murojaatlarini qo'llashga o'rganadilar. Jamoa bo'lib ishlashda “kichik o'qituvchi” boshchiligida ish bajarish o'quvchilarning aqliy, nutqiy, ruhiy rivojlanishiga samarali ta'sir ko'rsatadi. Chunki bu faoliyatga nutqiy rivojlanishidan qat'iy nazar, hamma o'quvchi qatnashadi. Sinfda ko'proq yaxshi o'qiydigan, nutqiy malakalarga ega bo'lgan o'quvchilar “kichik o'qituvchi” qilib tayinlanadi va boshqaruvchilik faoliyatini amalga oshiradi. Aslida sinfdagi bo'sh o'zlashtiruvchi o'quvchilar qancha ko'p nutqiy amaliyotga tortilsa, nutqiy rivojlanishi shunchalik ilgarilaydi. Bunda bo'sh o'quvchiga o'z vaqtida yordam berilishi, topshiriqni avval uning o'zi tushunishi zarurdir. Tayyorlov sinflarida kichik o'qituvchi epizodik tarzda qatnashadi: material, ish qurollarini tarqatishda, alohida harakatlarni bajarishda yoki tayyor buyumlarni yig'ishda. Keyinchalik kichik o'qituvchining harakat maydoni kengayadi. U ish rejasini tuzishi, ishning bajarilishini kuzatishi, o'rtoqlariga ish haqida hisobot berishi, ishni baholashi mumkin. Barcha jarayon nutqiy amaliyot bilan bog'liq holda kechadi. Kichik o'qituvchi bilan ishlashda quyidagi ish turlarini tavsiya etamiz.

1. Tayyor buyum namunasi va tayyor topshiriqlar (kartochkalarda)dan foydalanish.
2. SHirma ortiga yashiringan tayyor buyum namunasi bo'yicha ishlash.
3. Shirma ortida o'qituvchi bajargan har bir harakat asosida topshiriq tuzish.

Hozirgi kunda o'qitish texnologiyalari orasida o'zining natijaviyligi va ishtirokchilarda ijtimoiy ko'nikmalarni rivojlantirishga yo'nalganligi bilan ustuvorlik qilib kelayotgan **hamkorlikda** o'qitish tamoyili asosida tashkil etiladigan ushbu o'qitish shakli (usuli) o'quvchilarning nutqiy muloqoti va shaxsiy munosabatlarini faollashtiradi. Sinf 2 yoki 3 guruhga bo'linadi. Bo'linish o'quvchilarning ixtiyoriga yoki o'qituvchi ko'rsatmasiga binoan amalga oshiriladi. Guruhlar tayyorlanishi kerak bo'lgan buyum mazmunidan kelib chiqib tuziladi. Bunda guruhlar nutqiy rivojlanishi bir-biriga yaqin yoki turlicha bo'lgan bolalardan tuzilishi mumkin. Agar guruh nutqi rivojlangan bolalardan tuzilgan bo'lsa, bolalar topshiriqlarni o'zlari mustaqil ravishda bajaradilar. Aksincha bo'lsa, o'qituvchi kerakli joyda o'quvchilarga yordam beradi. Guruhlarga boshlovchilar tayinlanadi. Dastlab o'qituvchi o'zi boshlovchi sifatida biron bir guruh (bo'sh o'quvchilar)da ishtirok etadi. Boshqa boshlovchilar esa, o'qituvchi harakati, nutqiga taqlid qilib, o'z guruhlarini boshqaradilar. Bunda har bir guruh o'quvchilarning o'zaro nutqiy muloqotiga erishishi shartdir. O'qituvchi nutqiy materialni darsgacha tayyorlab qo'yadi, ish davomida tegishli vaziyatga mos tarzda nutqiy materialni jarayonga tatbiq etadi. Ushbu nutqiy materialning qabul qilinishini engillashtirish uchun u kartochkalarga yozib qo'yiladi, tarqatiladi. O'quvchi agar faoliyat davomida imo-ishora yoki daktil nutqdan foydalansa, zinhor taqiqlamaslik lozim. Aksincha, ayni vaziyatda imo-ishora yoki daktillab aytilgan so'zni og'zaki aytirish talab qilinadi. Shunda so'zning ma'nosi 3 ko'rinishdagi nutqiy vositalarda uyg'unlashadi.

Juftlik bilan ishlashda quyidagi ish turlarini tavsiya etamiz: Faoliyatni tashkil qilishning ushbu shaklida o'quvchilar so'zlashuv nutqini rivojlantirish uchun yana ham keng imkoniyat yaratiladi. Chunki bunda har bir o'quvchi o'rtog'i bilan muloqot qilishiga to'g'ri keladi.

O'qituvchi hamma o'quvchilarni juftlikka ajratadi. O'qituvchi tomonidan yoki o'quvchi xohishiga binoan juftliklar tarkib topadi. Har bir juftlik mustaqil ishlaydi.

O'qituvchi ularni nazorat qiladi, zarur hollarda yordam beradi. Quyidagi ish turlarini tavsiya qilamiz:

1. Hamma juftliklar bir xil topshiriq bajaradi. Har bir juftlik o'qituvchidan topshiriqni qabul qilib oladi, bajaradi va hisobot beradi. Bu ish usuli orqali o'quvchilar «biz» olmoshini o'zlashtiradilar.

2. Juftlikda o'quvchilarning navbat bilan ishlashi. Juftlikdagi o'quvchilar bir xil topshiriqni navbat bilan bajaradilar. "Avval, keyin" tushunchalari o'zlashtiriladi. Bir o'quvchi harakatni bajarsa, ikkinchi o'quvchi nima qilganini yozib turadi. So'ngra o'rin almashadi.

3. Juftlik boshqaruvchisi bilan ishlash. Ikki o'quvchidan biri boshqaruvchi qilib tayinlanadi. Unga o'qituvchi buyum namunasini ko'rsatadi. Boshqaruvchi o'qituvchidan olgan topshiriqlarni o'rtog'iga beradi va uning bajarishini nazorat qiladi.

O'quvchilarga predmetli amaliy faoliyatni rejalashtirishni o'rgatish fan dasturining muhim bo'limi hisoblanadi. Zero, bu jarayon o'quvchilar mantiqiy tafakkurining rivojlanishi bilan bog'liqdir. Tafakkur jarayonlari (analiz, sintez, taqqoslash, umumlashtirish)ning amalga oshishi orqali eshitmaydigan bolalar so'zlashuv nutqi rivojlanadi.

Biz uzoq yillar (10 yil) davomida kar va zaif eshituvchi o'quvchilarni amaliy faoliyat davomida ijtimoiy ko'nikmalarga ega bo'lishini kuzatdik va tahlil qilib bordik. Kuzatish natijalari orqali o'qituvchi, tarbiyachilar va ota-onalar uchun kar va zaif eshituvchi o'quvchilar maktab ta'limi davrida, xususan predmetli amaliy faoliyat davomida egallashlari lozim va mumkin bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalar xajmini ajratdik. Natijada "Predmetli amaliy ta'lim (texnologiya)" fanidan tayyorlov, 1,2,3,4,5-sinflari uchun davlat talablari, o'quv dasturini ishlab chiqdik. Quyida sinflar kesimida o'quvchilar amaliy faoliyat davomida egallashi lozim bo'lgan bilim, ko'nikma, malakalar hamda tayanch va hayotiy kompetensiyalarni keltirib o'tamiz. Tadqiqotning ushbu qismi pedagoglar uchun dastur sifatida, oilalar uchun esa, o'z farzandining shu yoshda nimani va qanday

qilib yasay olishi, bu jarayonni nutqiy jihatdan ifodalay olishini nazorat qilishga xizmat qiladi.

“Predmetli amaliy ta’lim” faniga tayyorlov sinfida xaftasiga 1 soatdan jami 34 soat, birinchi sinflarda xaftasiga 3 soatdan jami 102 soat ajratiladi. Umumta’lim maktablarida o‘qitiladigan o‘quv fanlaridan tayanch va fanga oid kompetensiyalar alohida ajratib beriladi. Biz tadqiqot asosida imkoniyati cheklangan bolalar tayanch va fanga oid kompetensiyalardan ham tashqari hayotiy kompetensiyalarni egallashlari lozim degan xulosaga keldik. Natijada maxsus ta’lim amaliyotiga “Hayotiy kompetensiya” tushunchasini kiritishga erishdik. “Predmetli amaliy ta’lim” fanidan muallifligimizda takomillashtirilgan davlat talablari (tayanch va hayotiy kompetensiyalar) 8-ildavda sinflar va choraklar kesimida keltirildi. Demak, mehnat ta’limining kar va zaif eshituvchi bolalarni ijtimoiy hayotga tayyorlovchi vazifalari quyidagilardan iborat:

Ushbu ta’lim o‘quvchilarning inson mehnati, uning mahsuli, yaratilgan buyumlar, ishlab chiqarish muhiti, turli materiallarni ishlab chiqarish texnologiyasi va estetik jihat, moddiy ishlab chiqarish iqtisodiyoti haqidagi tasavvurlarini hosil qilish hamda kengaytirishga xizmat qiladi.

Mehnat ta’limi o‘quvchilarni oilada va turmushda ma’lum vazifalarni bajarishga, ishni taqsimlashga, ma’suliyatli bo‘lishga tayyorlaydi.

Kar va zaif eshituvchi bolalar mehnat faoliyati orqali ma’naviy va moddiy manfaatdorlik xissini tuyishga o‘rganadilar. Ushbu dars o‘quvchilarda mehnat qilishga intilishni, ma’naviy-moddiy manfaat motivatsiyasini qaror toptirish, ijodiy mehnat qilishga, amaliy, ahloqiy va ruhiy tayyorgarlikni amalga oshirish, ijtimoiy hayotda turli faoliyatlarda zarur bo‘lgan ijodiy qobiliyatlarni, aqliy, jismoniy fazilatlarni safarbar qilish ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

Bajarilgan buyumlarning sifati va ularning boshqalar tomonidan baholanishi o‘quvchilarni o‘z-o‘zini va bajargan mehnatini haqli baholanishini nazorat qilishga tayyorlaydi. Bu vazifa o‘quvchilarning huquqiy tarbiyasi masalasi doirasida amalga oshiriladi.

O‘z-o‘ziga hizmat va qishloq xo‘jaligi mehnati orqali kar va zaif eshituvchi bolalar ekologik madaniyatga o‘rganadilar.

Ish taqsimoti va bajarilgan ishlarning o‘g‘il va qiz bolalar uchun xosligiga qarab, o‘quvchilarda gender tenglik munosabatlari shakllanadi. Ya’ni o‘g‘il bolalar ayrim kundalik yumushlar (idish yuvish, dasturxon tuzash, dazmol ishlari, soch turmaklari...)ni bajarish talab etilganda: **“bu qizlarning ishi”**-degan munosabatning o‘rinsizligini anglashi lozim. Chunki sanab o‘tilgan kundalik hayot yumushlariga mustaqil hayot davomida ehtiyoj tug‘ilishi tabiiydir.

Mehnat darsi kar va zaif eshituvchi bola shaxsini kundalik turmush tarziga tayyorlaydi va bunyodkorlik, omilkorlikka o‘rgatadi. O‘quvchilarda mustaqillikni, tashabbuskorlikni tarbiyalaydi.

Mehnat darslari kar va zaif eshituvchi bolalar uchun iqtisodiy bilimlar va kundalik hayotni o‘ziga xos tarzda bog‘lovchi omil bo‘lishi lozim. SHu bois mehnat darslarida o‘quvchilarga tadbirkorlikning ilk belgilariga oid ko‘nikmalarni egallash uchun topshiriqlar beriladi. Masalan, ish jarayonida o‘z-o‘zini boshqarish, tahlil qilish, namoyon qilish, ish bilan shug‘ullanish orqali iqtisodiy ta‘minlanishga erishishning ahamiyati mehnat darslarida oson va tabiiy vaziyatlarda tushuntiriladi. Masalan, maktab ko‘rgazmasiga yoki sinf burchagiga qo‘yish, ota-onalarga sovg‘a sifatida taqdim etish, maktab bozori tashkil qilish orqali o‘quvchilarga o‘z mehnatining o‘rinli baholanishini xis qildirishga erishish mumkin. Bu esa, o‘quvchilarda mehnat orqali moddiy manfaat ko‘rish, o‘zini boshqara olish, o‘z mehnatiga va o‘zgalar mehnatiga hurmat bilan qarash ko‘nikmalarini shakllantiradi. O‘quvchi ongida mehnatga muhabbat xissi uyg‘onadi.

Har bir mehnat darsi psixologik jihatdan to‘g‘ri yo‘naltirilgan bo‘lishi lozim. Bunda o‘quvchilarning diqqati, xotirasi, irodasini to‘liq safarbar etishlariga erishish uchun zarur topshiriqlar, vositalar oldindan tayyorlab qo‘yilishi maqsadga muvofiqdir. Bundan tashqari har bir topshiriq o‘quvchilarda psixik jarayonlar: bilish, anglash, taqqoslash, xulosa va umumlashtirishni rivojlantirishga hizmat qilishi kerak. Biroq berilayotgan topshiriqlar o‘quvchilarni charchatmasligi, ularga

bosim bilan berilmasligi talab etiladi. Chunki o'quvchilar o'z imkoniyatlariga mos topshiriqlarni qiziqish va ijodiy yondashish orqali bajaradilar. Ishtiyoq va qiziqish bilan qilinayotgan mehnat majburan qildirilayotgan mehnatga nisbatan bolalarning ongiga, hissiyoti va irodasiga kuchliroq ta'sir etadi.

Maxsus maktablarda mehnat bo'yicha dars va sinfdan tashqari ishlar o'quvchilarning dunyoqarashini shakllantiradi, ularning ijodiy qobiliyatlarini o'stiradi hamda badiiy estetik didini oshirishda muhim omil bo'lib hizmat kiladi. Bu esa, o'z navbatida kar va zaif eshituvchi o'quvchilarning kelajakda to'g'ri kasb tanlashlariga turtki bo'ladi. Zero mazkur toifa bolalarning maktab ta'limi davrida ma'lum kasb-hunarni ongli ravishda tanlashlari va unga erishish yo'llarini egallashlari, ularning ijtimoiy hayotga samarali tayyor bo'lishlari uchun muhimdir.

“Tabiiy fan”, fanni o‘qitish jarayonida o‘quvchilarni ijtimoiy hayotga tayyorlashning mazmuni va usullari

Bolaning shaxs sifatida shakllanishi va jamiyatga samarali uyg‘unlashishining muhim shartlaridan biri atrof-olam haqidagi to‘g‘ri tasavvurga ega bo‘lishidir. Sog‘lom bolada sezgilari asosida atrof-olam haqidagi tasavvurga ega bo‘lish imkoniyati mavjud bo‘lib, u tadrijiy, stixiyali yoki maqsadli tarzda rivojlanish muhitining ishtirokchisi bo‘la oladi. Shuning uchun sog‘lom bolalarning maktab ta’limini muvaffaqiyatli egallashlari, ularning matematik bilimi, uquvi hamda ona tilidan savodi darajasi bilan o‘lchanadi.

Bugungi kunda 2018-2022 yillarda O‘zbekistonning o‘quvchilarning bilim, ko‘nikma va malakalarini baholash bo‘yicha qator Halqaro dasturlarda ishtirok etishi belgilandi. Jumladan, PIRLIS (Progress in International Reading Literasy Stady)-matnni o‘qish va tushunish savodxonligi sifatini o‘rganish bo‘yicha xalqaro tadqiqot dasturi bo‘lib, Ta’lim yutuqlarini baholash xalqaro assosiatsiyasi(IEA-International Association for the Evaluation of Educational Achievement) tomonidan tashkil etilgan; TIMSS- 4 va 8-sinf o‘quvchilarining matematika va tabiiy yo‘nalishdagi fanlardan savodxonlik darajasini; PISA – 15 yoshli o‘quvchilarning o‘qish, matematika va tabiiy yo‘nalishdagi fanlardan savodxonlik darajasini; TALIS-umumiy o‘rta ta’lim maktablari direktori va o‘qituvchilari bilan so‘rovnoma o‘tkazish orqali maktabda o‘qitish va ta’lim olish jarayonlari samaradorligini baholashning xalqaro dasturlarida ishtirok etishi rejalashtirildi. Bu jarayon respublikamizda umumiy o‘rta ta’limning natijaviyligi sifat jihatdan keng qamrovli tahlil etilishini ko‘zda tutadi [203].

PISA-o‘quvchilarning o‘qish(matnni tushunish), matematika va tabiiy fanlardan bilim darajalarini baholashga qaratilgan xalqaro dastur bo‘lib, o‘quvchilarning maktab davrida orttirgan bilim va ko‘nikmalarini aniqlashga mo‘ljallangan. Bundan tashqari ushbu dastur o‘quvchilar munosabati va motivatsiyasi haqida halqaro ijtimoiy-iqtisodiy muhitda qimmatli ma’lumot to‘playdi, o‘quvchilarda muammoni hal qilish kabi ko‘nikmalarni baholab boradi.

Masalan, global ahamiyatga ega masalalarni hal etishda yoshlarning fikr va munosabatlari, taklif va echimlarini baholaydi.

PISA - dunyo mamlakatlari o'quv dasturlarida mavjud bo'lgan talablar doirasida xalqaro baholash dasturlarini o'tkazishga asoslanib, o'quvchilarning bilim va ko'nikmalarini amaliyotda qo'llay olish, fikrlash va muloqot qilish qobiliyatlariga e'tibor qaratadi.

Ushbu xalqaro tadqiqotda mamlakatimizning ishtirok etishidan maqsad:

- boshlang'ich sinf (4-sinf) o'quvchilarining o'qish savodxonliklari qanday shakllanganligini bilish va taqqoslash;

- mamlakatimiz boshlang'ich sinf o'quvchilarining boshqa mamlakatlardagi tengdoshlariga nisbatan matnni o'qish va tushunish darajalarini solishtirish;

- o'qish savodxonligidan dars beruvchi pedagog xodimlarimizning dars berish metodlari samaradorligini tahlil qilish;

- bugungi kunda bizning mamlakatimizda o'qish savodxonligi bo'yicha darslar maktablarda qanday tashkil etilgan;

- ota-onalar o'quvchilarning o'qish savodxonligini yaxshilashda ishtirok etishini o'rganish [207].

Xalqaro standartda o'quvchilarning dars vaqtidagi va maktabdan tashqari vaqtdagi ikki turdagi o'qish savodxonligi baholanishi belgilab qo'yilgan:

- o'quvchilarda badiiy o'qish savodxonligi ko'nikmasini o'rganish;

- axborotni o'zlashtirish va ulardan foydalanish ko'nikmasini o'rganish [204].

Tadqiqotda o'quvchilar badiiy va axborot (ilmiy-ommabop) matnlarni o'qish qobiliyatlari to'rt guruhda baholanadi:

- aniq shaklda berilgan matndan ma'lumot topish;

- matnning mazmunini, til xususiyatlarini va tuzilishini tahlil qilish va baholash;

- axborotni umumlashtirish va talqin qilish;

- berilgan matndan xulosa chiqarish.

Sanab o‘tilgan dasturlarning tadqiqotda keltirilishidan maqsad quyidagilar:

- bizning tadqiqotimizda ilgari surilgan g‘oyalar, tavsiyalar kar va zaif eshituvchi bolalarda aynan, matnni o‘qish va tushunish ko‘nikmalarini rivojlantirishga yo‘naltirilganligi;

- mamlakatda sodir bo‘ladigan yoshlarga oid har qanday islohotlar kar va zaif eshituvchi yoshlarga ham taaluqli bo‘lib, ular ham sog‘lom tengdoshlari qatori iqtisodiy-ijtimoiy munosabatlarda ishtirok etishi tabiiyligini ta’kidlash.

Shuning uchun ularni ijtimoiy hayotga tayyorlashda o‘qish, matnni tushunish, matematika va tabiatga doir bilim, ko‘nikma va malakalar bilan qurollantirish muhim o‘rin tutishini amaliyotchilarga etkazish. Tadqiqot davomida kar va zaif eshituvchi bolalarning matematik tasavvurlar hamda ona tilidan zarur bo‘lgan nutqiy zahiraga qachonki, atrofdagi narsa va hodisalarning nomi, belgi xususiyatlari hamda hayotdagi vazifalarini o‘zlashtirish orqali ega bo‘lishini kuzatdik. Natijada amaliyotda kar va zaif eshituvchi bolalar ta’lim muassasalarida o‘qitiladigan “Tabiiy fan” o‘quv fanining mazmunan va tashkiliy jihatdan takomillashtirilishiga erishildi. Olib borilgan tajriba-sinov ishlari yordamida 4 o‘quv yili mobaynida tayyorlov, 1,2-sinflarda “Tabiiy fan”, 3,4,5-sinflar uchun “Tabiiy fan” fani o‘quv dasturini ishlab chiqib, tegishli metodik tavsiyalarni joriy etdik. Bundan tashqari muallifligimizda 1,2-sinflar uchun “Tabiiy fan” darsligi ishlab chiqildi. Ushbu darslik mazmunida aynan o‘quvchilarga narsa va hodisalarning nomi, tuzilishi va vazifalarini o‘rgatuvchi maxsus interaktiv o‘quv topshiriqlari bilan boyitildi. Xususan, o‘quvchilarni og‘zaki, yozma va daktil, imo-ishorali nutq orqali muloqotga undovchi topshiriqlar amaliyotda o‘zining ijobiy natijalarini ko‘rsatdi. Ya’ni o‘quvchilarga narsaning nomini to‘liq tushuntirish, undan foydalanish qoidalarini

puxta o'rgatish imkoniyati kengaydi. Natijada bolalar mustaqil hayotda o'zgalarning yordamiga muhtoj bo'lmagan holda o'z-o'ziga hizmat qilish ko'nikmalariga ega bo'ldilar. Bundan tashqari ushbu darslik mazmunida hayot xavfsizligi, huquqiy savodxonlikka oid topshiriqlar aks ettirildi. Ma'lumki, kar va zaif eshituvchi bolalarning atrof-olam haqidagi tasavvurlari ta'limga qamrab olingunga qadar juda kambag'al bo'ladi. Chunki ularga predmetlarning belgilari, vazifalari, qismlari va boshqa xususiyatlari haqida tushunchalarni berish uchun mutaxassis yordami zarur bo'ladi. Mazkur toifa o'quvchilarga kundalik hayotda sodir bo'ladigan voqea-hodisalarning mohiyatini tushuntirish uchun alohida maqsadli pedagogik jarayon tashkil etilishi kerak bo'ladi. Oilalarda bolaga ma'lumotlar shunchaki yuzaki va sayoz hamda faqat tashqi ko'rinish bilangina bog'liq ma'nolarda beriladi. Bundan tashqari oilalarda predmetlar va voqea-hodisalarni ifodalash uchun shartli imo-ishoralar (agar bolaning oilasida kar inson bo'lmasa, bu imo-ishoralar shartli, agar oilada kar yoki zaif eshituvchi inson bo'lsa, unda bu belgilar omma qabul qilgan shakllarda bo'ladi va bu belgini o'zlashtirish sifati amaliyotda samarali hisoblanadi) yaratiladi. Qachonki kar bolalar atrof-olam haqida aniq, to'g'ri hamda to'liq ma'lumotga ega bo'lsalar, shundagina ularda quyidagi ko'nikma va malakalar shakllanadi: -atrofdagi kundalik hayot uchun zarur bo'lgan predmetlar, vositalardan foydalanish; -o'z salomatligiga xavf tug'diradigan narsalardan foydalanmasdan, ulardan nari bo'lish; -bilmagan holda atrofdagi boshqa insonlarga zarar etkazish ehtimolini tushunish va oldini olish; -favqulodda sodir bo'lishi mumkin bo'lgan voqea-hodisalar haqida tasavvurga ega bo'lish va ularning belgilarini bilishini namoyon qilish (ushbu ko'nikma kar va zaif eshituvchi bolalarning turli oqimlarga tushunmagan holda kirib ketishlari yoki yovuz niyatli odamlarning g'arazli niyatlarini amalga oshirishlarida vositachi bo'lishdan ham asraydi); -predmetlarning xususiyatlarini bilish va ulardan samarali qo'llash orqali ma'lum kasb-hunarga doir mehnat harakatlari (operatsiyalari)ni amalga oshirish; -ma'lum davralarda o'zini tutish, ovqatlanish va suxbatlashish qoidalariga rioya etish; -o'z bilgan va egallaganlarini boshqalarga tushunarli qilib etkaza olish.

Sanab o'tilgan ko'nikma va malakalar kar bolalar uchun ijtimoiy hayotga moslashish jarayonida qo'l keladigan va zarur shartlardandir. Biroq kar va zaif eshituvchi bolalarni yuqorida sanab o'tilgan ko'nikma va malakalar bilan qurollantirish uchun korreksion-pedagogik jarayon maqsadli tashkil etilishi lozim. SHuning uchun biz o'rganuvchi tadqiqot davomida aniqlangan holatlar va muammolar (kar va zaif eshituvchi bolalarning oddiy murojaatlarni amalga oshirishlari uchun so'z zahirasi va predmetlar haqida tasavvurlari etarli emasligi)ni hal etish uchun "Tabiiy fan" va "Tabiiy fan" dars va mashg'ulotlar mazmunini takomillashtirish hamda bu jarayonga zamonaviy usul va vositalarni tatbiq etish kerak, degan xulosalarni asosladi. Zero, bu fan kar va zaif eshituvchi bolalar uchun olamni to'g'ri va to'liq anglashlarida dastlabki qadamlardan hisoblanadi. Demak, ushbu fanning samarali o'qitilishi kar va zaif eshituvchi bolalarni boshqa umumta'lim fanlarini egallashlari hamda pirovardida ijtimoiy hayotga moslashishlarida asosiy omillardandir.

"Tabiiy fan" o'quv kursi (fani) kar bolalarning borliq haqidagi tasavvurlarini shakllantirishni ko'zda tutgan bo'lib, uning mazmunida tabiat-inson-jamiat tushunchalari bir-biriga uzviy holda aks etadi. Ushbu fan maxsus maktablarda o'qitiladigan boshqa umumta'lim va korreksion fanlar qatorida kar bolalarni jamiyatda mustaqil hayotga har tomonlama xususan, ijtimoiy-hayotiy, XXI asr uchun zarur ko'nikmalarga ega shaxs sifatida shakllanishini ta'minlashda asosiy o'rinni egallaydi.

Kar bolalarda tabiatga, atrofda bo'layotgan barcha hodisalar (harakatlar, voqealar, hayotiy vaziyatlar)ga bo'lgan ongli (g'amxo'rlik, parvarish, asrash, to'g'ri va o'rinli foydalanish, ishlab chiqarishda maqsadli ishtirok etish...) munosabatni shakllantirishdan oldin, ularni atrof-muhit haqida (tabiat va undagi barcha jonli va jonsiz narsalar haqidagi) dastlabki-elementar bilim, ko'nikma va malakalar bilan qurollantirish lozim. Kar bolalarda ta'limga qamrab olingunga qadar atrof-muhit haqidagi tasavvurlarning cheklanganligi, ushbu fanni o'qitish bir vaqtning o'zida o'quvchilarning so'zlarni o'rganishi, mantiqiy tafakkuri va nutqini shakllantirishni

ham ko‘zda tutadi. Shuning uchun biz tadqiqot davomida tayyorlov sinflari uchun fan bo‘yicha davlat talablari va o‘quv dasturini takomillashtirishga erishdik. YA’ni davlat talablari va dastur mazmuniga daktil nutqqa o‘rgatish uchun mo‘ljallangan nutqiy talablarni kiritdik. Chunki 1997 yilga qadar o‘quv rejada “Daktil nutqqa o‘rgatish” korreksion mashg‘uloti uchun o‘quv soati mavjud edi. Ushbu soatning olib tashlanganligi o‘qituvchilar tomonidan noroziliklarni yuzaga keltirdi. Ushbu muammoning oldini olish maqsadida tayyorlov sinflaridagi “Atrofimizdagi olam” mashg‘uloti mazmuniga daktil nutqni egallashga mo‘ljallangan talablarni kiritdik. Bundan tashqari ushbu fan mazmunida hayot xavfsizligi asoslari va yo‘l harakati qoidalarini o‘rgatish yuzasidan talablar ham o‘z aksini topgan. Demak ushbu o‘quv fanining asosiy vazifalari eshitishida muammosi bo‘lgan o‘quvchilarni: atrofdagi narsalar (predmetlar), tabiat va uning hodisalari bilan tanishtirish; atrofdagi narsalar(predmetlar), tabiat va uning hodisalari haqidagi tasavvurlarini tizimlashtirish, boyitish; tevarak-atrofdagi narsa va hodisalarni o‘z nomi bilan atashga o‘rgatish; tevarak-atrofdagi narsa va hodisalarning xususiyatlari, ahamiyati va insonlar hayotiga ta’sirini anglash va farqlashga o‘rgatish; shaxs rivojlanishida muhim me’yor qoidalariga rioya qilishga o‘rgatish; ma’naviy-axloqiy, iqtisodiy, huquqiy, gigienik, estetik, mehnat, jismoniy, jinsiy, ekologik va boshqa tarbiya yo‘nalishlari bo‘yicha ko‘zda tutilgan talablarni tushunishga va ularga rioya qilishga o‘rgatish; atrofda yuz berayotgan voqea-hodisalarga ongli munosabatda bo‘lishga o‘rgatish; o‘zi va o‘zgalar (yaqinlari, tengdoshlari, oila-a’zolari.....) hayoti, salomatligi va mehnatiga ma’suliyatli munosabatda bo‘lishga o‘rgatish; o‘zi yashayotgan Vatan (respublika, viloyat, tuman, mahala, ko‘cha, xonadon)ga xos ma’lumotlar, xususiy jihatlar (ramzlari, aholisi, iqlimi, mashhur shahar va qishloqlari, qahramonlari, ishlab chiqarishlari....) bilan tanishtirish orqali Ona Vatan mohiyatini anglashga o‘rgatishdan iboratdir.

Ushbu fan o‘z mazmunida tilni o‘rganishga va tabiatga oid tushuchalarni mujassam etadi. Bu fan umumta’lim maktablarida o‘qitiladigan “Atrofimizdagi olam” fani mazmuniga to‘liq mos kelsa-da, quyidagi holatlar bilan farqlanadi:

Sogʻlom bolalar ushbu yoʻnalishdagi tushunchalarni oʻz hayotiy tajribalariga tayangan holda tez va samarali egallash imkoniyatiga egadirlar, chunki ularda nutqiy zahira tegishli xajmda mavjud boʻladi. Eshitishda muammolari boʻlgan bolalarda esa, ushbu nutqiy zahira umuman boʻlmaydi yoki tasavurlari shaxsiy imo-ishorali belgilar (ushbu belgilarni oʻz oila aʼzolari va yaqinlarigina tushunadi)dan iborat boʻladi. SHuning uchun maxsus maktablarda ushbu fanni oʻqitish tayyorlov sinflaridan boshlanadi.

Kar va zaif eshituvchi bolalar maktablarida ushbu fanni oʻqitishda maxsus taʼlimning xususiy tamoyili-korreksion yoʻnalganlik tamoyiliga tayaniladi. YAʼni har bir mavzu yuzasidan nutqiy yoʻnaltirishlar, koʻrsatmalar alohida tanlanadi va bundan tashqari ularning rasmlil tasviri keltiriladi. Masalan, sogʻlom bola qish tushunchasini eshitgan zahoti “sovuq”, “eriydi”, “qor”, “muz”, “yaxmalak” kabi tasavvurlarni koʻz oldiga keltira oladi. Kar va zaif eshituvchi bolalar esa, bu tushunchalarni bilmaydilar. Shuning uchun nutqiy koʻrsatmalar alohida berilishi talab etiladi.

Oʻqitishning tayyorlov davrida kar va zaif eshituvchi bolalarga daktil nutq alohida oʻrgatiladi. Shu sababli fanning mazmunida ushbu jarayonni amalga oshirish uchun tegishli nutqiy materiallar aks etadi.

Bir marta oʻqitilgan mavzuni turli kontekstlarda va turli mavzular mazmuniga singdirilgan holda qayta-qayta oʻqitish talab etiladi.

Kar va zaif eshituvchi bolalar maktablarida “Tabiiy fan” fanini oʻqitish uch yoʻnalishda amalga oshiriladi. Ushbu yoʻnalishlar bir-birini toʻldirgan holda oʻquv yilining oxirigacha hamoxang tarzda olib boriladi.

Birinchi yoʻnalish. Oʻquvchilar kundalik hayot uchun zarur predmetlarni nomlashga oʻrgatilib, yaʼni oʻquvchilarning nutqiy tayyorgarligini moslashtirish ishlari amalga oshiriladi. Bunda aytilgan predmetlarni koʻrsatish, koʻrsatilgan prdmetlarni nomlash, predmetlarning nomi yozilgan kartochkalar ichidan mosini tanlash, soʻzga mos predmet rasmini rasmlar ichidan tanlash kabi ish turlari tavsiya etiladi.

Ikkinchi yo‘nalish. O‘quvchilarni insonlar mehnati bilan, ijtimoiy hayotda ro‘y beradigan voqea-hodisalar, shaxs rivojlanishi uchun muhim me‘yoriy-qoidalar bilan tanishtirish ishlari amalga oshiriladi. O‘quvchilar o‘ziga tegishli va kerak bo‘lgan narsa va predmetlarni, salomatligi uchun zarur bo‘lgan kun tartibida belgilangan jarayonlarning mohiyatini anglashga o‘rgatiladi. Bunda darslarning har xil turlaridan foydalanish talab etiladi. Ya’ni sayr darsi, uchrashuvlar-konferensiya darsi, mushoira darsi, tashrif darsi, videotahlil va boshqa darslar o‘quvchilarning atrof-muhit haqidagi tasavvurlarini bevosita aniq vaziyatlarda tahlil qilish imkoniyatini beradi.

Uchinchi yo‘nalish. O‘quvchilar tabiat bilan yaqindan tanishish imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Bunda ular tabiatdagi hodisalarni bevosita kuzatadilar, ya’ni fasllar va ulardagi o‘zgarishlar, insonlar va hayvonlarning hayoti, fasllarga mos insonlar mehnatining turli shakllaridagi ishlarni tashkil qilish orqali kuzatadilar. O‘quvchilarning bu yo‘nalishdagi faoliyati ularda shaxsiy munosabatlarning shakllanishi bilan alohida tavsiflanadi. O‘quvchilar jonli va jonsiz tabiat, ularning insonlar hayotida tutgan o‘rni va roli, tabiatni asrash haqidagi bilim, ko‘nikma va malakalar bilan qurollantiriladi.

Har bir yo‘nalish o‘z maqsad va vazfasiga ko‘ra o‘quvchilarga atrof-muhitdagi narsa va hodisalarning mohiyati, insonlar hayotiga ta’siri, real borliqdagi narsalarning bog‘liqligini o‘rgatishni ko‘zda tutadi. Bundan tashqari o‘quvchilar atrof-muhitda ro‘y berayotgan voqealarni kuzatish, shaxsiy munosabatini bildirish, o‘zini tutishga o‘rganadilar.

“Tabiiy fan” fanining yana bir muhim xususiyati, uning o‘quv dasturi mazmuni boshqa umumta’lim fanlarini egallashga zamin hozirlovchi tavsifga egaligidadir. Ya’ni o‘quvchilar o‘z atrofidagi barcha narsa va hodisalarning nomini, xususiyatini va boshqa jihatlarining mohiyatini o‘rganish orqali boshqa fanlarning asoslarini egallash uchun zarur nutqiy zahiraga ega bo‘ladilar. Darslar o‘quvchilarning so‘zlashuv va u asosida bog‘langan nutqini, pirovardida esa, kommunikativ ko‘nikmalarini rivojlantirishni ko‘zda tutadi. Masalan, o‘qituvchi sayr paytida

o'quvchilar oldiga ko'rib o'rganilayotgan narsa-predmet haqidagi tasavvurlarini o'zaro o'rtoqlashish, shu yuzasidan dialog tuzish va olib borish va x. shunga o'xshash nutqiy muloqotga ehtiyoj tug'diruvchi talablarni qo'yadi. Shu o'rinda o'qituvchining qo'lida kerakli didaktik-nutqiy ko'rsatmalar bo'lishi muhim pedagogik talab hisoblanadi.

O'quvchilarning nutqiy ko'nikmalarini rivojlantirish bo'yicha quyidagi ish turlari tavsiya etiladi:

1. Ko'rgan va o'rgangan narsa-predmet, voqea-hodisalarni daktil-og'zaki, og'zaki-daktil va yozma tasvirlash.
2. Sayr haqida kichik hikoya tuzish va gapirib berish.
3. Kundalik yuritish. Kuzatuvlarini yozib berish.
4. Kichik hisobotlar va loyihalar taqdimoti.
5. Tajribalar o'tkazish va ular haqida so'zlab berish.

O'qituvchi ushbu darsni amalga oshirishda ish turlarini maqsadli tanlashga e'tibor berishi kerak. Masalan:

a) O'lkashunoslikka oid bilim, ko'nikma va malakalarni o'quvchilarga taqdim etishda o'qituvchi kuzatish, tahlil qilish, tajribalarni o'rganish, amaliy ishlarni bajarish kabi metodlardan foydalanishga harakat qilishi kerak. Agar ushbu jarayon og'zaki tushuntirish asosida olib borilsa, mazmunning o'quvchilar ongiga etib borishi murakkablashadi. Chunki o'quvchilar ushbu materiallarni bevosita o'zlari aniq anglab etmasalar, esda saqlashlari qiyin bo'ladi;

b) Ob-havoni kuzatish va mavsumiy o'zgarishlarni o'rganishda tabiat qo'yniga sayr, "Jonli burchak" da ish tashkil qilish va uni kuzatish, kattalar bilan suxbat, turli kasb egalari bilan uchrashuvlar, o'simliklar va hayvonlar hayoti haqida diafilmlar, inson salomatligi to'g'risidagi kichik hikoya va maqolalar, plakatlar, rasmlar namoyishi, "Rolli o'yinlar", videotreninglar, qo'g'irchoq teatrlari tashkil qilish kabi samarali ish turlaridan foydalanish tavsiya etiladi;

v) Jonli tabiatni o'rganish jarayonida muayyan predmetni har tomonlama tahlil qilish va uni tavsiflashga taaluqli ish turlari talab etiladi. Bunda o'rganilayotgan predmet boshqa predmetlardan yoki o'xshash predmetlardan nimasi bilan farq qilishiga oid ***“Unisi ham, bunisi ham emas”, “Sirli xaltacha”, “SHirma ortidagi mehmon”, “...ning afzalligi va kamchiligi”, “.... va men”, “.... haqida mening kuzatuvlarim”*** kabi usullardan foydalanish tavsiya etildi. Bu turdagi mavzularni o'quvchilar o'zlashtirishlarida ularning shaxsiy tajribasiga tayanishning ustuvorligi maqsadga muvofiqdir;

g) Bir guruhga oid predmetlar, hayvonlar, o'simliklar haqida bilim, ko'nikma va malakalar dastlab umumiy tarzda o'rganilishi va undan so'ng yakka tartibda tavsiflanishi tavsiya etiladi. Chunki o'quvchilarning umumiy tasavvurini shakllantirmasdan turib, tahlil qilish jarayonini tashkil qilish yaxshi samara bermaydi. Har qanday mavzuni o'quvchilar ongiga singdirish va uning mazmunini o'quvchilar tomonidan qayta aloqaning amalga oshirilishi (atash, so'zlash, xikoya qilib berish, taqqoslash, umumlashtirish, o'xshash predmet va voqea bilan almashtirish....)ga erishishda interfaol usullardan foydalanish tavsiya etiladi. Demak, “Tabiiy fan” o'quv fani orqali o'quvchilar:

BILADILAR:

- atrofda predmet, voqea va hodisalarning nomlarini atashni;
- predmetlarning qaysi guruhga mansubligi, shakli, rangi, katta-kichikligi va boshqa o'ziga xos belgilarini, ahamiyati, nima uchun hizmat qilishini;
- voqea-hodisalarning sabablari va oqibatlarini; fasllar va ulardagi o'zgarishlarning sabablarini;
- predmetlar o'rtasidagi bog'liqlik va farqli tomonlarni; o'z ismi, sharifi, manzilini; ota-onasi, yaqinlari, qarindoshlari ismi va sharifini;
- insonlar mehnat faoliyati turlarining nomlarini; mavsumiy o'zgarishlarning nomini va insonlar hayotiga ta'sirini;
- Ona Vatan tushunchasi, uning mohiyati, ramzlari, bayramlari, tabiati, o'simliklari, hayvonlari, shahar va qishloqlarining nomlarini;

- “Mening maktabim”, “Mening uyim”, “Mening oilam”, “Mening mahallam”, “Mening Vatanim”, “Mening o‘qituvchim, tarbiyachim, sinfdoshlarim, maktabdoshlarim” tushunchalari mohiyatini va jihatlarini; kun tartibi qoidalarini, intizom tushunchasi mohiyatini; jamoat joylarida o‘zini tutish qoidalarini; ovqatlanish, kiyinish, uxlash, yuvinish, o‘qish, yozish, o‘tirish, yurish-turish, so‘zlash, salomlashish, kattalar va o‘zgalarga murojaat qilish, predmetlarni saqlash, salomatligini nazorat qilish qoidalarining mohiyatini;

- jonli va jonsiz tabiat xususiyatlarini; tabiatni asrashning mohiyatini va yo‘llarini; o‘simliklar va hayvonlar hayotini, ularni tasvirlashni; jamoat joylari va ularning ahamiyatini; o‘zi va o‘zgalar mehnatini qadrlashning mohiyatini; issiq, sovuq, shirin, achchiq, foydali, zararli, yaxshi, yomon tushunchalari ma’nosini.

EGALLAYDILAR:

Predmetlardan maqsadli, o‘rinli va to‘g‘ri foydalanish qoidalarini; tabiat hodisalarini farqlashni va tasvirlashni; predmetlarni tasvirlashni; o‘z ismi, sharifi, manzilini aytishni, daktillashni va yozishni; issiq, sovuq, shirin, achchiq, foydali, zararli, yaxshi, yomon.... tushunchalarini farqlashni; jamoat joylarida o‘zini tutish qoidalariga rioya qilishni; ovqatlanish, kiyinish, uxlash, yuvinish, o‘qish, yozish, o‘tirish, yurish-turish, so‘zlash, salomlashish, kattalar va o‘zgalarga murojaat qilish, predmetlarni saqlash, salomatligini nazorat qilish qoidalariga rioya qilishning muhimligini; tabiatni, atrof-muhitni asrash qoidalariga rioya qilishni; mehnat qilish va dam olish tartibiga rioya qilishni; ob-havoni kuzatish usullarini; o‘simliklar va hayvonlarni parvarish qilish yo‘llarini; maktabi, oilasi haqida so‘zlab berishni; bajargan ishi, o‘rgangan narsa yuzasidan hisobot tayyorlashni;

BAJARADILAR:

Predmetlarning ichidan o‘ziga tegishli predmetlarni tanishni va tanlashni; predmetlarni tasvirlashning eng qulay va atrofdegilarga tushunarli bo‘ladigan yo‘llarini tanlashni va amaliyotda qo‘llashni; o‘zi yashayotgan joyni boshqa joylar orasidan (haritadan, joy nomlari yozilgan yoki tasvirlangan kartochkalar, rasmlar orasidan tanishni va tanlashni); issiq, sovuq, shirin, achchiq, foydali, zararli, yaxshi, yomon tushunchalaridan kundalik hayotida foydalanishni; jamoat joylarida tartib

buzilishlarini baholashni; ovqatlanish, kiyinish, uxlash, yuvinish, o'qish, yozish, o'tirish, so'zlash, salomlashish, kattalar va o'zgalarga murojaat qilish, predmetlarni saqlash, salomatligini nazorat qilish qoidalariga ongli ravishda rioya qilishni; tabiatni, atrof-muhitni asrash yo'llarini tanlash va qo'llashni; mehnat qilish va dam olishda tegishli sharoitga mos tarzda shaxsiy tartibini o'rnatishni; ob-havoni kuzatishning samarali usullaridan foydalanishni; o'simliklar va hayvonlarni parvarish qilishning samarali yo'llarini tanlab, amaliyotda qo'llashni; Vatani, maktabi, oilasi, mahallasi, sinfi, o'qigan asarlari haqida turli shakllarda (og'zaki, og'zaki-daktil, yozma, rasmi, she'riy, gerbariy, mozaika, kollaj, maqola, kichik xikoya, intervyu, rolli o'yinlar va h.k.) loyiha tayyorlashni.

Biz tadqiqot ishi davomida o'qituvchi va tarbiyachilarga ushbu dars davomida qo'llanilishi lozim bo'lgan ish turlarini ham alohida ajratib berishni maqsadga muvofiq deb hisobladik. Bundan tashqari kar va zaif eshituvchi bolalarning eshituvchilar olamiga kirishi uchun eng muhim bo'lgan davrlarda egallashlari lozim bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalarini ham ajratib berdik. Ma'lumki, o'quv rejada "Ona tili va adabiyot" kursini tarkibida "Daktil nutqqa o'rgatish", 1-sinfda esa "Labdan o'qish" nomli korreksion soatlar qisqartirilgan. "Tabiiy fan" mazmuni to'liq shu korreksion darslarning o'rnini qoplaydi va "Talaffuzni shakllantirish, eshitish qobiliyatini rivojlantirish" yakka mashg'ulotlari uchun nutqiy material sifatida tanlanadi. Natijada kar o'quvchilarning so'zni o'zlashtirishi va muloqotda dastlab daktil ravishda, so'ngra og'zaki tarzda qabul qilishi va uzatishini ta'minlashga erishish imkoniyati yaratiladi. Demak, "Tabiiy fan" kursi mazmunidagi lug'at "Daktil nutq" va "Labdan o'qish" ko'nikmalarining shakllanishi uchun zarur nutqiy material sifatida tanlanishi va o'quvchilarning shu so'zlar yordamida daktillash, so'ngra daktil shriftlardan harflarga o'tish, so'zlarni (tovushlar qo'yilgach) labdan o'qish mashqlarini bajarishi uchun asos bo'lishi maqsadga muvofiqdir. Biz tadqiqot davomida amaliyotga kar va zaif eshituvchi bolalarning kamida 30 ta turkum predmetlar va tushunchalar nomini, ahamiyati va belgi xususiyatlarini o'rganishlariga erishish bo'yicha lug'at tarkibini ishlab chiqdik. Ushbu lug'at mazmuni shu sinf darsliklariga kiritildi. Ular: "Oila", "Ranglar",

“Geometrik shakllar”, “Mevalar”, “Sabzavotlar”, “Poliz ekinlari”, “O‘yinchoqlar”, “Kiyimlar”(ustki, oyoq, bosh, ichki, mavsumiy, ishbop...), “Oziq-ovqatlar”, “YUvinish vositalari”, “O‘simliklar”(gullar, butalar, daraxtlar), “Uy hayvonlari”, “YOvvoyi hayvonlar”, “Idishlar”(taom tayyorlash, mehmon kutish, choy-kofe ichish, quyuq, suyuq taomlarni suzish uchun...), “YOtoqxona jihozlari”, “Sinf jihozlari”, “Elektr jihozlar”, “O‘quv qurollari”, “Sport anjomlari”, “Xafta kunlari, oy, yil”, “Fasllar”, “Bayramlar”, “Milliy taomlar”, “Qushlar”, “Xashoratlar”, “Transportlar”, “Kasblar”, “Tana a‘zolari”, “Ish qurollari”, “O‘yinlar”.

Kar va zaif eshituvchi bolalar so‘zlarning ma’nolarini anglasalargina, ular shu tushunchalardan hayotiy nutqiy vaziyatlarda og‘zaki, yozma, daktil va imo-ishorali tarzda qo‘llash ko‘nikmalarini egallash imkoniga ega bo‘ladilar. Agarda kar va zaif eshituvchi bola so‘z ma’nosini tushunmasa, unda shu so‘z va u anglatgan imo-ishorali belgini amaliyotda umuman qo‘llamaydi. Natijada bu bolaning muloqot maydoni torayadi. Bu esa sog‘lom insonlar orasida yashash, mehnat qilishga to‘sqinlik qiladi. Shu holatni oldini olish uchun biz ta’limiy tadqiqot mazmunida aynan kar va zaif eshituvchi bolalarga atrof-olamni anglashga o‘rgatuvchi “Atrofimizdagi olam” fani mazmunini qaytadan shakllantirdik va amaliyotga darslik shaklida tatbiq etdik. Darslikning didaktik va pedagogik-psixologik imkoniyatlari, ya’ni samaradorligi tadqiqotning kar va zaif eshituvchi bolalarda atrofdagilar bilan muloqot qilish ko‘nikmalarini tahlil qilishga bag‘ishlangan tajriba-sinov ishlari tahlilida asoslab berildi.

Kar va zaif eshituvchi bolalar uchun maktablarda muhim korreksion fan bu “Nutq o‘stirish” dir. Ushbu fan o‘quv rejadagi “Ona tili” fanining tarkibidagi soatlar hisobidan o‘qitiladi. Ona tili fani tarkibiga I-V sinflarda O‘qish va nutq o‘stirish, Nutq o‘stirish (og‘zaki so‘zlashuv, bog‘lanishli nutqni rivojlantirish, grammatik tushunchalarni amaliy egallash ko‘zda tutiladi), 6-12- sinflarda Ona tili va Adabiyot fanlari kiradi. Mazkur o‘quv fanlariga ajratilgan soatlar quyidagi jadvalda ko‘rsatilgan:

3.2.1-jadval.

	O'quv fanlari	Sinflar												
		0	1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11	12
	Ona tili va adabiyot	8	8	8	10	10	10	10	8	6	6	6	6	5
	Nutq oʻstirish		4	4										
	Oʻqish		4	4	5	3								
	Ona tili												4	2
	Adabiyot												2	3
Tayyorlov sinfida jami 8 soat														
	Oʻquv fanlari													
				I chorak		II chorak		III chorak		IV chorak				
	Daktil nutqni oʻrganish			3		2		1		1				
	Ogʻzaki (ovozli) nutq			4		4		4		4				
	Savodga oʻrgatish			1		2		3		3				

“Nutq o‘stirish” fani o‘quvchilarni nutqiy muhitga amaliy tayorlaydi. Kar va zaif eshituvchi bolalar “Tabiiy fan” darsida lug‘atni o‘zlashtiradi, “Predmetli amaliy ta’lim” darsida ushbu obrazli tushunchalar so‘z-mantiqiy tus oladi, ya’ni predmetlar o‘rtasidagi so‘zli bog‘lanishlarni bevosita buyumni analiz-sintez qilish orqali mustahkamlaydilar. “Nutq o‘stirish” darslarida esa, o‘quvchilar o‘zbek tili qonuniyatlari asosida nutqiy birliklarni to‘g‘ri qo‘llashga o‘rganadilar. Demak, bu uchala fan o‘zaro bir-biriga bog‘liqdir. Biz tadqiqot davomida muallifligimizda “Nutq o‘stirish” 3-sinf darsligi mazmunini takomillashtirdik. Darslik o‘quvchilarning nutqiy kompetensiyalarini rivojlantirishga yo‘naltirilgan o‘quv va interfaol didaktik topshiriqlar bilan boyitildi. Quyida darslikning ayrim sahifalaridan namunalar keltiriladi. Ularda juftliklarda, kichik guruhlarda va o‘zaro nutqiy faoliyatga undovchi topshiriqlar aks etgan.

Maxsus ta’lim tizimida ilk bor darsliklar mazmuniga bu kabi interfaol o‘quv topshiriqlari kiritilishiga erishildi va bu jarayon o‘quvchilarda o‘zaro muloqot,

o'zgalarni tinglash, jamoada ishlash va o'z-o'zini namoyon qilishga o'rgatishda o'z samarasini berdi.

1. Juftlikka bo'lining.
2. O'rtog'ingizga kuzgi tabiat haqida savol bering.
3. Rasmda insonlar nima qilayotgani haqida matn tuzing.
4. Rasmdagi insonlarga ism toping va ular nima qilmoqchi bo'lganini tasavvur qiling.

Ikkita guruhda ishleng.

1. Har bir guruh berilgan ish qog'ozidagi jadvalni to'ldiradi va taqdimot qiladi.
2. Agar qiynalsangiz o'qituvchidan yordam so'rang.

1-guruh uchun topshiriq:

Sabzavot nomi	Belgilari	Qachon pishadi?	Qishga qanday g'amlanadi?	Savol yoki test tuzin

2-guruh uchun topshiriq:

Meva nomi	Belgilari	Qachon pishadi?	Qishga qanday g'amlanadi?	Savol yoki test tuzin

Yozma javob yozing va hikoya qilib bering.

1. Qaysi kasblar haqida o'qidingiz?
2. Olim qaysi kasb haqida gapirdi?
3. Qaysi kasb egalari ishini tong sahar boshlaydilar?
4. Kimlar quruvchi bo'lmoqchiligini aytdi?

5. Tikuvchilik kasbi uchun qaysi fanlar zarur? Nima uchun?
6. Haydovchiga hushyorlik nima uchun kerak?
7. Qaysi kasb egalari maxsus kiyim kiyishadi?

Mustaqil ish

O'rtog'ingiz bilan savol-javob qiling.

1. «Mehnat ta'limi» darsida nimalar yasagansiz?
2. Sizga qaysi ishingiz ko'proq yoqadi?
3. Maktabda ko'rgazma tashkil etilsa, qaysi ishingizni qo'ygan bo'lardingiz?
 1. Sinfda ko'rgazma tashkil qiling. Buning uchun o'zingiz yasagan narsalarni partaga qo'ying.
 2. O'qituvchi orangizdan hay'at a'zolarini belgilaydi. Ular o'qituvchi bilan birga ishlarni baholaydi.
 3. Siz o'z partangiz yonida turib, hay'at a'zolarining fikrini tinglang. Ular siz yasagan ishlaringizdan birini tanlaydi.
 4. Hay'at a'zolari tanlagan ishingizni doskada taqdimot qiling.
 5. Ketma-ket quyidagi savollarga javob bering.

Kar va zaif eshituvchi bolalar maktablari o'quv rejasiga amaliyotda kuzatilgan muammolarning echimini topishga yo'naltirilgan tajriba-sinov ishlari natijasida "Nutqiy muloqot" korreksion fani kiritildi. Kar va zaif eshituvchi bolalar maktablari uchun o'quv reja 9-ilovada keltiriladi. Muallifligimizda ushbu fan uchun o'quv dasturi ishlab chiqildi va tatbiq etildi. Dasturning eng muhim uslubiy qulay jihati unda nafaqat mavzular hamda ularga ajratilgan soatlar, balki ish turlari ham alohida ko'rsatib berildi. Amaliyotda o'qituvchilar ushbu ish turlarini ketma-ketlikda, oddiydan murakkabga qarab qo'llab kelmoqdalar. "Nutqiy muloqot" korreksion darslari o'quvchilarni ijtimoiy hayotga tayyorlashdagi muhim darslardan hisoblanib, o'quvchilarning lug'at boyligini oshirishga xizmat qiladi hamda uning mazmuni

o'quvchilarni og'zaki, yozma shakllarda hamda daktil va imo-ishorali nutqiy vositalardan samarali, to'g'ri foydalangan holda muloqot qilishga o'rgatishga yo'naltiriladi.

Xulosa qilib shuni aytish joizki, "Nutq o'stirish", "Nutqiy muloqot" korreksion fanlari sog'lom bolalar umumiy ta'limi hamda kar va zaif eshituvchi bolalar umumiy ta'limining farqli jihatlari o'rtasidagi tafovutni qisqartiruvchi omillardandir. Ya'ni ushbu fanlar o'quvchilar uchun fanlarni o'zlashtirish uchun zarur ko'nikma va malakalarni egallash imkonini beradi. Ular umumta'lim fanlarini egallash, fanlararo integratsiyani amalga oshirish uchun "ko'prik"dir.

Alohida talimga ehtiyoji bo'lgan bolalarni ijtimoiy hayotga tayyorlashga yo'naltirilgan strategiya va texnologiyalar

Maxsus ta'limda korreksion-pedagogik jarayonning tarkiban puxta, o'zaro uzviy, bir-birini to'ldiruvchi munosabatlarda tuzilishi, alternativ g'oyalar hamda vositalar bilan qurollangan holda tashkil etilishi va pirovardida samaradorlikka erishishi pedagoglarni innovatsion faoliyatga undovchi omillardandir. Amaliyotda nogiron bolalar ta'limi bilan shug'ullanuvchi pedagoglarga o'rgangan usullarini amaliyotda qo'llaganda nimalarga e'tibor berish kerakligi yuzasidan tavsiyalarga ehtiyoj tug'ildi. Biz o'qituvchi va tarbiyachilar uchun o'z faoliyatlarida tizimli, samarali ish olib borishlari uchun maslahatlar majmuasini ishlab chiqdik.

1. Har bir dars yoki mashg'ulotga puxta tayyorlanish. Eng muhimi maqsadni to'g'ri tanlash va vazifalarni belgilash kerak.

2. Dars va mashg'ulotlarda o'quvchilarning o'ziga xos xususiyatlarini inobatga olishga intilish. Bu yondashuv nafaqat darasda, balki darsgacha bo'lgan paytda, ya'ni dars ishlanmalarini yaratishda inobatga olinishi lozim. Har bir o'quvchning salohiyatiga loyiq topshiriqlarni tayyorlashga odatlanish.

3. Dars va mashg'ulotlar uchun kerakli vositalarni oldindan tayyorlashda, shu usulga alternativ topshiriqlarni ko'zlash.

4. Puxta o‘ylangan reja asosida ish olib borish. Reja mavzu va qo‘yilgan maqsadga asosan tuziladi. Uni shunday tuzingki, oldindan sinfda yoki shaxs-o‘quvchi yoki boshqa sizning psixologik ta’siringizga muhtojlar bilan yakka ishlaganda ular jarayon davomida oqsab qolishi ehtimollarini ham inobatga olish. SHunday muammoli vaziyatlarni vaqtida bartaraf etish yo‘llarini va usullarini oldindan rejalashtirish.

5. Adolatli va sabrli bo‘lish. Jarayon davomida o‘quvchilar tomonidan bildiriladigan fikrlarning eng maqbulini tanlashda va ularga shaxsan murojaatlarni amalga oshirishda neytral holatda turish.

6. Mavzuni yoritishga zarur tayanch savollarga boy bo‘lish.

7. Dars va mashg‘ulotlarda o‘quvchilarning har bir yutug‘ini e’tibordan chetda qoldirmaslik. O‘z vaqtida ularni baholash, undanda yangi va yaxshi zafarlarga chorlash.

Shunga muvofiq ravishda aytish mumkinki, maxsus ta’lim o‘qituvchilarining innovatsion faoliyatga tayyor bo‘lishi yoki shu yo‘nalishda faoliyat olib borishi: nogiron o‘quvchilarning ijtimoiy hayotda o‘z o‘rnini topishi uchun zarur ko‘nikma va malakalarini rivojlantira oladigan, ularni kelajakka yo‘naltira oladigan; o‘quvchilarni jamiyatga foydasi tegadigan, o‘z ehtiyojlarini o‘zgaga mute bo‘lmasdan qondira oladigan mustaqil shaxs sifatida tayyorlay oladigan; ta’limni o‘quvchilarning yoshi va ruxiy xususiyatlari, cheklangan imkoniyatlariga mos va xos usullar yordamida takomillashtira oladigan; nogiron bolalarni jamiyatda yuz berishi mumkin bo‘lgan ekstremal vaziyatlarda to‘g‘ri qaror qabul qilishga, o‘zgalarga doim muhosana bo‘lishga, barkamol shaxs, komil inson etib shakllanishida o‘z mavqei va mas’uliyatini xis qiladigan zamonaviy, yangiliklarga moyil va moslashuvchan inson sifatida rivojlantirishga sharoit yaratadi.


Maxsus ta’lim muassasalari pedagog xodimlarining yangi, ilg‘or pedagogik texnologiyalar, jumladan, o‘qitishning zamonaviy interfaol usullarini bilishi, buning uchun tegishli ma’lumotlarni o‘rganishi, taxlil qilishi va umumlashtirishi,

amaliyotda qo'llay olishi bugungi kunning ijtimoiy ahamiyat kasb etuvchi talabidir. Ushbu talab doirasida maxsus ta'lim tizimi pedagoglarining innovatsion faoliyatini samarali tashkil etishga yo'naltirilgan qator strategiya va texnologiyalarni ishlab chiqdik va amaliyotga tavsiya etdik.

I. **“Majburiyat+imkoniyat=muvaqqafiyat”(MIM)** strategiyasi. Ushbu strategiya o'qituvchilarga darsni oddiygina o'tmasdan, balki barcha imkoniyatlarni safarbar qilish orqali muvaqqafiyatga erishish imkonini beradi. **Strategiyaning g'oyasi:** Majburiyatni xis qilish, imkoniyatni ishga solish, muvaqqafiyatga erishish.

3.4.1-sxema

“MIM” strategiyasi loyihasi



Ushbu strategiya o'qituvchilarning bir kunlik faoliyatini maqsadli rejalashtirishga o'rgatdi. Amaliyotda aksariyat bir kunda 5 ta, 6 ta dars o'tadigan o'qituvchilarning dars ishlanmalarida ko'zda tutilgan usul va vositalar o'qituvchining ta'lim jarayonida muntazam boshqaruvchiligiga, yakkahokimligiga asoslanmoqda. Ularning dars ishlanmalarida shu darsning jadvaldagi o'rniga qarab, tegishli yondashuvlardan to'g'ri foydalanish e'tiborga olinmayapti. Dars ishlanmasida ko'zda tutilgan, ya'ni rejalashtirilgan ishlarning amalga oshirilmagan jihatlarini yohud izohlarni yozish uchun hech bir dars ishlanmalarida joy ajratilmagan. Shuning uchun amaliyotga o'qituvchilarning kunlik ish rejasini

samarali tuzish va faoliyatida samaradorlikni ta'minlashga yo'naltirilgan "MIM" texnologiyasini tatbiq etdik. "MIM" strategiyasini amalga oshirish mexanizmi:

1. O'qituvchi kunini maqsadli rejalashtirishga odatlanishi lozim. Buning uchun bir kunda necha soat dars o'tiladi?, qaysi sinfga?, sinf o'quvchilarining o'ziga xos xususiyatlari (amaliyotda har bir sinf o'ziga xos jihatlarga ega bo'ladi) qanday? kabi savollarga javob bergan holda hamda mavsumiy o'zgarishlarni aslo unutmagan tarzda oldindan o'z kunini bashoratlashi talab etiladi.

2. Dars uchun vositalar tanlangan usullardan kelib chiqib tayyorlanadi. Usullar esa dars mavzusi va jadvaldagi o'rniga qarab tanlanishi maqsadga muvofiqdir. Chunki 4-5-soatlarda dars o'tayotgan o'qituvchilarning darslari kuzatilganda ularning asabiy holatdaligi, horg'inligi va o'quvchilar uchun ochiq muloqotga psixologik zo'riqish tufayli tayyor emasligi sezildi. Xuddi shu o'qituvchilarning 1-,2-,3-darslari kuzatilganda shijoatli, muloqotga ochiq, savollarga shayligi sezildi. SHuning uchun ham amaliyotda dars jadvalining tuzilishiga qator talablar qo'yiladiki, ulardan biri aqliy faoliyat kup talab etiladigan darslar 1-3-soatlarga, ijodiy va jismoniy harakatlarga yo'naltirilgan darslar 4-6-soatlarga rejalashtiriladi.

3. O'qituvchi dars usullarini tanlashda nimalarga e'tibor berish kerak?—degan savolga javob berishi talab etiladi.

- fan xususiyatlari, o'quvchilarning yoshiga;
- o'zining notiqliqligi yoki amaliyot (misollarni doskada yozib, ko'rsatib, yozdirib tushuntirishi)ga yo'nalganlik xususiyatiga;
- dars mavzusi uchun ajratilgan soatlar va shu kungi dars nechanchi ekanligiga;
- vaqt komponentiga;
- natijalar (usul qo'llanilgandan so'ng)ni baholash imkonining mavjud bo'lishiga, ya'ni harakatlar besamar ketmasligiga.


4. O'qituvchi 4-6-darslar uchun ishlanmalarni yaratayotganda o'quvchilarning mustaqil ishlashlariga yo'naltirilgan hamda dars mavzusi bo'yicha natijalarni qo'lga kiritish imkonini beruvchi usul va vositalarni tanlashi kerak. Bu

yondashuv mavjud sharoitlarni hisobga olgan holda to'g'ri tanlangan usul va vositalarga ega ta'lim jarayonining samaradorligini ta'minlashga hizmat qiladi. Chunki agar o'qituvchi charchaganligi sababli darsni sovuqqonlik bilan o'tsa, o'zini va o'quvchining vaqtini o'g'irlagan bo'ladi. Buning ustiga 4-6-darslarda o'quvchilarning ham umumiy holatida passivlik kuchaygan bo'ladi. Shuning uchun o'qituvchilar bu darslarda o'quvchilarni faollashtirishga (uyqusini "ochishga") yo'naltirilgan usullar va vositalarni tanlashi lozim. Ayniqsa, bu yondashuv dars jihozlarini tanlashga nisbatan ahamiyatga ega. Negaki, o'qituvchilardan har bir darsga birdek tarqatmalar, ishchi matnlar, ish qog'ozlari tayyorlashni talab qilish ham noto'g'ri hisoblanadi. O'qituvchilar qaysidir darsga kerakli ashyolarni tayyorlash imkonini topsalar, boshqa darslarda "Kichik ma'ruza" (slydlar namoyishi va izohlar) undan so'ng savol-javob bilan cheklanishi mumkin. Eng muhimi, o'qituvchi dars maqsadiga erishishi lozim.

5. O'qituvchi darsning ishlanmasini yaratishga ***"Hujjat to'ldirish"*** degan munosabatda bo'lishdan qochishi lozim. Ya'ni stixiyali dars ishlanmasini faqat rasmiyatchilik uchun, amaldagi dars jarayoni qanday bo'lishini aniq tasavvur qilmagan holda yaratish xuddi ovqatga chamalab tuz solishga o'xshaydi. Mohir oshpazlar adashmasligi mumkin, biroq har doim ham emas. Ovqatni qayta-qayta tatib ko'rib, tuzini to'g'rilash mumkin. Dars esa, qayta-qayta o'tilavermaydi.

3.4.2-sxema


Majburiyatni amalga oshirish bosqichi



6. O‘qituvchi dars uchun rejalashtirgan barcha vazifalarni bajarishga o‘z kuchini safarbar qilishi lozim. Undan dars jarayonida yuzaga keladigan turli kutilmagan vaziyatlarga ham doim tayyor turish talab etiladi. Turli harakterli o‘quvchilarning noodatiy (hurmatsezlik, mensimaslik, e’tiborsizlik, manmanlik, “a’lochilik sindromi”...) munosabatlariga pedagogik etika me’yorlari va kasbiy mahorat amaliyoti nuqtai-nazaridan yondashgan holda dars jarayonini tashkil qilish, boshqarish va nazoratini olib borish talab etiladi. Bu talab uning dars jarayonida butun vujudining quloq, ko‘z, yurak bo‘lishiga undaydi. Bundan tashqari o‘qituvchi o‘z fanidan yangiliklarni muntazam o‘rganib, o‘z ustida ishlashi muhim shartlardandir.

3.4.3-sxema

O‘qituvchining imkoniyatlari




8. O‘qituvchi har bir harakatidan qoniqish xissini tuyishga o‘rganishi lozim. Buning uchun o‘quvchilarning har bir erishgan natijalarini o‘z vaqtida baholashga ulgurishi talab etiladi. Shu yo‘l o‘quvchilarni quvontiradi, bu quvonch o‘qituvchiga kuch beradi. **Maqtovda sahiy, jazoda bahil** (me’yordan o‘tmagan holda) bo‘lgan o‘qituvchilarning darslarida o‘quvchilar faol va erkin ishtirok etadilar.

9. O‘qituvchi o‘z kunini rejalashtirar ekan, albatta oldindan “erishaman” degan fikrni ko‘nglidan o‘tkazishi lozim. Biroq doim kun uchun rejalashtirgan vazifalari erishimli, aniq, vaqtga bo‘ysunuvchi va albatta o‘zi uchun muhim bo‘lishi muhimdir. Kun uchun ham, har bir dars uchun ham to‘g‘ri maqsadni ko‘zlash va vazifalarni belgilash muvaffaqiyatni ta‘minlaydi. Maqsad ko‘zlansa-yu, xohish-istak, intilish, ya’ni ichki motivatsiya yuzaga kelmasa, o‘qituvchi faoliyatida miqdor (baho, hisobot) qadriyatga aylanib, sifat, obro‘, halollik kabilar esa unutiladi.

3.4.4-sxema

Muvaffaqiyatga erishish bosqichlari



10. Har bir o‘qituvchi kuni va darsini rejalashtirganda uning ongida buyurtmachi sifatida **“Davlat menga nimani buyurgan?”**, **“O‘quvchi nima hoxlaydi?”**, **“Nimalar va qanday usullar orqali maqsadimga erishaman?”**- degan savollar gavdalansa, uning har bir darsi o‘quvchilar uchun quvonch va mashqlarga boy jarayon sifatida tashkil etiladi.

II. «Didaktik muhit egasi» yohud “O‘rganish usulini tanlash” strategiyasi. Bu texnologiya asosida dars o‘tish rejalashtirilganda o‘qituvchining ko‘z o‘ngida - **bugun darsda kim faol bo‘lgani ma’qul?**, - **o‘quvchilar o‘zlari ishlaganlarida qanday usullardan foydalanar ekan?** – degan savollar gavdalanadi. Albatta o‘quvchilarga berilgan erkinlik “ko‘rinmas jilov” bilan boshqarilib turiladi. Aks holda dars bozorga aylanib ketishi mumkin. Bu texnologiya asosan darsning yangi

mavzuni mustahkamlash bosqichida yoki “Mustahkamlash”, “Nazorat”, “Takrorlash va umumlashtiruvchi dars” kabi darslarning butun jarayonida qo‘llanilsa, o‘z samarasini beradi. Yuqori sinflarda “Yangi mavzuni o‘zlashtirish” darsida ham qo‘llanilishi tavsiya etiladi. Bu yo‘l kar va zaif eshituvchi bolani o‘z xatosidan uyalmaslikka o‘rgatish orqali ularda mustaqillik malakalarini shakllantirish imkonini beradi. Quyida bu texnologiyaning “Mehnat ta’limi” darsida qo‘llanilishini ochib beramiz. Bolalarga ish qurollari kerakli miqdorda beriladi va buyum tayyorlash uchun qulay muhit tayyorlanadi. Bu texnologiya qo‘llanilganda o‘quvchilarning partalarda emas, balki polda, gilam to‘shalgan erda yoki partalar o‘rtaga yig‘ilgan holatida ishning tashkil etilishi kutilgan natijani beradi. Ish boshlanishidan oldin bolalarga ishlash qoidalari tushuntiriladi. Duskada yoki ko‘rinarli joyda tayyorlanadigan buyum(lar) namoyish etiladi. O‘qituvchi darsning ayrim vaziyatlarini tasvirga olishi mumkinligini hamda butun jarayon davomida kuzatib boruvchi ekanligi to‘g‘risida o‘quvchilarni ogohlantiradi.

«Didaktik muhit egasi» strategiyasi qo‘llanilganda tayyorlanadigan buyumni bola qo‘li bilan ushlab, har tomonlama o‘rganishi (ochishi, qatlarini ko‘rishi, qismlarini sanashi...) uchun imkoniyat yaratilishi talab etiladi. Eng muhimi, bola o‘zi mustaqil mehnat operatsiyalarini bajarish usullarini va ketma-ketligini tanlashi muhim shartlardan hisoblanadi.

O‘quvchilar mustaqil topshiriqni bajarishadi. Topshiriqni yakunlagan o‘quvchilar o‘z ishlarini umumiy stolga qo‘yadilar. So‘ng ishlar o‘quvchilar tomonidan tahlil qilinadi.

“O‘rganish usulini tanlash” texnologiyasi qo‘llanilganda o‘quvchilar o‘zlari ish usulini tanlaydi, o‘zlari xohlagan ish bosqichidan ish boshlaydi, o‘zlari xohlagan rang va boshqa turdagi kerakli jihozlardan foydalanadilar. Tayyorlangan buyumning sifati, tugallanganlik darajasi va boshqa holatlar muhokama etilmaydi. Aksincha 2-darsda (odatda 2 ta dars ketma-ket qo‘yiladi) o‘qituvchi har bir bolaga so‘z beradi. Ular bajargan ishlari yuzasidan hisobot beradilar. Har ish va har bir fikr ijobiy qabul qilinadi. Amaliyotda shu texnologiya asosida tashkil etilgan ayrim darslar

kuzatilganda o'qituvchilar o'z o'quvchilarining turli qirralarini ochishga erishdilar. Hatto didaktik muhit egasi maqomi orqali ayrim o'quvchilarning hatti-harakatlari o'qituvchi uchun tajriba manbaiga aylandi.

Ushbu texnologiyadan foydalanganda o'qituvchilardan quyidagilar talab qilinadi:

1. Topshiriqning o'quvchilar tomonidan mustaqil bajarishga mos bo'lishi.
2. Bajarilgan ishlarning har biri alohida baholanishini ta'minlash.
3. Topshiriq bajarishda xato qilgan o'quvchilarga o'z xatosini tushunishiga imkon berish.
4. Ayrim o'quvchilarga yordam berish.
5. Zarur paytlarda dam olish daqiqalarini tashkil etish.
6. Butun dars davomida o'quvchilar o'rtasida o'zaro do'stona munosabat, sog'lom raqobat muhitini yaratishga erishish.


III. **“1-4-5” strategiyasi.** Ushbu strategiya kar va zaif eshituvchi bolalar nutqini tizimli rivojlantirishga xizmat qiladi. Har bir o'qituvchi, ayniqsa, tarbiyachi va boshlang'ich sinf o'qituvchilari uchun bu yo'l dasturilamal bo'lishi lozim. Ushbu strategiya yangi so'z bilan tanishish, uning 4 ta shaklini o'zlashtirish hamda 5 ta pozitsiyadagi ketma-ketlikda qayta ishlash orqali xotirada saqlanishiga erishishgacha yo'lni ko'zda tutadi.

Masalan, 1 ta so'z: 4 ta shakli: 1) daktillash (qo'l-barmoq harakatlari orqali harflarni havoda yozadi); 2) og'zaki aytish (til, lab harakatlariga qarab, taqlid asosida); 3) imo-ishorali belgisini ko'rsatadi; 4) yozadi (alifbodagi harflarni havoda yozishi mumkin yoki bloknotga yozish talab etiladi). So'ngra 5 ta pozitsiyada so'z ma'nosi o'zlashtiriladi. Masalan, 1) so'z birikmasida: -qizil olma; 2) sodda gapda: -olma pishdi; 3) savol tuzish va berish: -olmaning shakli qanday?; 4) faol lug'atga kiritish: tarbiyachi “Nutqiy jadval”ga so'zni qo'yadi va mashg'ulotlarning kirish qismida yoki nutqiy vaziyatlarda qayta-qayta so'rash orqali so'zni o'quvchining lug'at zahirasiidan o'rin olishiga erishadi. 5) qachonki shu so'zga o'quvchi turli

kontekstlarda duch kelganda xotirasida saqlangan ma'lumotlarni tiklagan holda soʻzni eslaydi va oʻzi xohlagan shaklda amaliyotda qoʻllaydi.

3.4.5-sxema

“1-4-5” strategiyasi tuzilmasi



“1-4-5” strategiyasini turli fanlar boʻyicha dars jarayonida qoʻllash.


Ushbu strategiya “Mehnat ta’limi” darslarida quyidagicha qoʻllaniladi: -dastlab mavzu, ya’ni tayyorlanadigan buyumning nomi, uni tayyorlash texnologiyasi aks etgan plakat doskada yoki ekranda namoyish etiladi.

Oʻquvchilardan buyum bilan tanishish va u haqida daftarga qisqa yozish talab etiladi. Ayrim vaziyatlarda oʻquvchilar uchun qisqacha bayonning tuzilish konstruksiyasi beriladi. Masalan, - bu **ning** vazifasi **ni** tayyorlash uchun ..., ... , ... kerak boʻladi. Ishni ... **dan** boshlaymiz. Keyin ... , ... **miz**. -topshiriq tushuntirilgandan keyin doskada “1-4-5” chizmasi namoyish etiladi; - bolalar chizma asosida va oʻqituvchining koʻrsatmasiga koʻra ishni bajaradilar. YA’ni oʻquvchilar dastlab buyumni yasash usulini tanlaydilar, buyum haqida soʻralgan oʻquvchining javobi eshitiladi, qaysidir oʻquvchilar ish reja yozilgan kartochniklarni

ketma-ket doskaga qo'yadilar, yana qaysidir o'quvchilar ish jihozlari nomini aytib yoki doskaga yozib, so'ngra o'qib eshittiradilar. Barcha o'quvchilar ishga birdek safarbar qilinadilar va buyumni tayyorlaydilar. Ish yakunida hisobot va ishni baholash topshiriqlarini bajaradilar. Bu tartib "Mehnat ta'limi" darsining ma'lum bo'limi yakunida, chorak boshi va yakunida, o'quv yili yakunida va "Nazorat" darslarida qo'llaniladi.

3.4.6-sxema

"1-4-5" strategiyasining "Predmetli amaliy ta'lim" darsida qo'llanilish loyihasi



Sanab o'tilgan yondashuvlarning aynan "Strategiya" deb nomlanishining boisi shuki, uning amalga oshirilishida bir qancha usul va vositalarning qo'llanilishidir. Bundan tashqari strategiya tarkibida bir qancha vazifalarni va ketma-ketlikda bajarilishi lozim bo'lgan ish turlari mujassam bo'ladi. Kichik-kichik, ammo o'z qismi uchun tugallangan bosqichlarning mavjudligi ham strategiyaga xos xususiyatdir.

IV. Refleksiv (qayta aloqa) yondashuv strategiyasi. Bu strategiyaning asosiy g'oyasi har bir yangi ma'lumotning o'quvchilar tomonidan o'zlashtirilishiga

erishish hisoblanadi. Bunda o'qituvchi va tarbiyachilar ma'lum yangi so'z-tushunchaning mazmunini tushuntirgan zaxoti, o'quvchilardan qayta so'rashi talab etiladi. Ushbu yondashuv **“Yagona nutqiy tartib”** bilan paralel qo'llaniladi. Darsda o'zlashtirilgan barcha yangi ma'lumotlar tarbiyachi tomonidan albatta, shu kunning o'zida **“Mustaqil dars tayyorlash”** va ma'lum fanlarning mazmunini takrorlovchi **“Nutqiy muloqot”**, **“Amaliy mashg'ulot”**, **“O'yin”** mashg'ulotlari jarayonida takrorlanishi talab etiladi.

Har bir o'quvchiga berilgan topshiriq albatta yakuniga etishini ta'minlash. Buning uchun **“Shu erda va hozir”** yondashuviga tayanish. Berilayotgan topshiriqlarning ko'lami va xajmi o'quvchilarning aqliy, nutqiy imkoniyatlariga mos bo'lishi talab etiladi.

V. “Har bir darsda 4 ta so'z strategiyasi”. Ushbu yondashuv har bir o'qituvchi va tarbiyachining oldida turgan muhim vazifasi bo'lishi lozim. Buning uchun har bir darsda o'quvchilarga 4 ta yangi so'zni o'rgatishi talab etiladi. Eng muhimi so'zning og'zaki, yozma, daktil va imo-ishoradagi belgisini to'liq tushuntirish lozim. Natijada bolalar bu so'zlardan turli nutqiy vaziyatlarda (kontekstlarda) bimalol foydalanishlariga erishiladi.

Tadqiqot davomida quyidagi innovatsion g'oyalar **“Innovatsion siklli metodik xizmat”** orqali amaliyotga tatbiq etildi.

- **“Yagona nutqiy tartib” o'rnatish orqali kar va zaif eshituvchi bolalarni samarali muloqotga o'rgatish g'oyasi;**


- **“Nutqiy klaster”** asosida o'quvchilarning nutqiy rivojlanishini ta'minlashning maqsadli ish tizimi sifatida tatbiq etildi. Ikkala g'oyani amalga oshirish uchun **“Nutqiy monitoring”** yuritilishi lozim hamda **“Yagona imo-ishoralar”** resursini yaratish (hozirgi kunda karlarning **“o'z ona tili”** sifatida e'tirof etiluvchi imo-ishoralar har viloyatda turli shakllarda ifodalanib qo'llanilmoqda, ya'ni 1 ta so'zni ifodlovchi qo'l harakatlari turlicha amalga oshirilmoqda).

G'oyani amalga oshirish texnologiyasi:

“Yagona nutqiy tartib” innovatsion g‘oyasi amaliyotda kar va zaif eshituvchi bolalarni ijtimoiy hayotga samarali uyg‘unlashish imkonini berishini faraz qilgan holda uning amalga oshirish mexanizmini amaliyotga tavsiya etdik.

Nutqiy monitoring jadvali

Kitob	Daftar	Choy	Non	Ko‘ylak	Stul	So‘z	Ruchka	To‘rt	Bosh



Nutqiy monitoring yuritish mexanizmi:

Nutqiy monitoring jadvali 1-5-sinflarda yuritiladi. Ushbu jadvalga qo‘yiladigan so‘z(kartochkalarda)lar “Atrofimizdagi olam”, “Nutq o‘stirish”, “Predmetli amaliy ta’lim”, “Matematika” fanlari darsliklari mazmunidan olinadi. So‘zlar shu davr uchun tanlanadi, ya’ni so‘zlar shu xaftada o‘tiladigan mavzularga tegishli matnlardan va kundalik hayotda uchraydigan so‘zlar tarkibidan tanlab olinadi. Ayrim so‘zlar takroran olinishi mumkin. Qachonki shu so‘zlar o‘quvchilar tomonidan faol lug‘atga kiritilgunga qadar olinishi mumkin. Dushanba kuni 10 ta so‘z 1-qatorga qo‘yiladi. Seshanba kuni bu so‘zlar 2-qatorga olinadi, 1-qatorga yana yangi so‘zlar quyiladi. Shu tarzda 1-qatorda har kuni yangi so‘zlar teriladi. So‘zlarning kartochkalardagi yozuvi yoki so‘z anglatgan rasm ham qo‘yilishi mumkin.

Juma kuni o‘qituvchi tomonidan so‘zlar “So‘zlar qutisi”ga solinadi. So‘zlar soni nazoratga olinadi. Takroran berilayotgan so‘zlar qaytadan hisoblanmaydi. SHu

tartibda kar va zaif eshituvchi bolalar xafta, chorak va o'quv yili davomida egallashi lozim bo'lgan so'zlar zahirasi real holatini aniqlash imkoniyatiga ega bo'linadi.

3.4.7-sxema



“Predmet-tushuncha-nutq-muloqot” strategiyasi.

Ushbu g‘oya har o‘qituvchining dasturulamali bo‘lmog‘i lozim. Chunki kar bolalarga har bir so‘z uning rasmi va u anglatgan ma’no aks etgan plakatlar orqali tushuntiriladi. SHuning uchun o‘qituvchi va tarbiyachilardan darsga doim ko‘rgazmali qurollar bilan kirish talab etiladi. Hamda bu strategiya fanlararo integratsion yondashuvga tayanadi. Bir darsda o‘zlashtirilgan tushunchaning boshqa darslarda qo‘llanilishi kar bolalar lug‘atini o‘stirishga hizmat qiladi. Buning uchun o‘qituvchilar o‘zaro fanlarda berilayotgan yangi tushunchalarni miqdoriy va mazmun jihatdan o‘zaro muvofiqlashtirib olishlari lozim. Har bir mavzuga oid tushunchalarning rasmi yoki natural holatda predmet namoyish etilmasa, o‘quvchi shu so‘zni o‘zlashtirish imkoniga ega bo‘lmaydi. Samarali, faol dars uchun esa kamida 4 ta plakat, 8-12 tadan tarqatmalar hamda uyga vazifa uchun ham namunaviy topshiriqlar aks etgan 8-10 ta nushada tarqatmalar kerak bo‘ladi. Amaliyotda “Kar bolaga har bir darsda kamida 4ta so‘z o‘rgatish”- shiori ostida faoliyat yuritish yo‘lga qo‘yildi.

Kar va zaif eshituvchi bolalar maktablarida “Epli o‘qituvchimi yoki seplimi” – deyilganda har ikkala sifatga ega o‘qituvchi ishlashi lozim.

“Adaptiv variatsiya” motivatsion strategiyani amalga oshirish uchun “Variatika doskasi” o‘quvchilarning mustaqil ishlashlarini tashkil etish maqsadida oddiy bo‘r bilan partada yoki doska yonida juftliklarda ishlash uchun tatbiq etildi.

										○
										○
										○
Minglik										
Yuzlik										
O‘nlik										
Birlik										

“Variatika doskasi” 2-rasm

Masalan, 1-qatorga (+), (-), (:), (•), (>) (<) ni yozing, uchburchakka 2,4,6,8, doiraga 12, 16, 48, 64 sonlarini yozing. Doiradagi sonni hosil qiling. Uchburchakdagi songa nechani qo'shsa, shu son hosil bo'ladi? Misol o'rta yoziladi. So'ngra natija chiqqan sonda nechta birlik, o'nlik borligini aniqlab, pastki mos qatorlarga belgi qo'yiladi. Ona tili darslarida: 1-qatorga so'z yoziladi. So'zdan so'z hosil qiling. So'zlarni so'z turkumlariga ajratib, 1-uchburchakka ot, 2-uchburchakka sifat, 3-uchburchakka fe'lni yozing. Ushbu doskada ishlashning 20 dan ziyod variatsiyasi qo'llanildi.

Xulosa

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, kar va zaif eshituvchi bolalar ta'limida bu kabi zamonaviy yondashuvlarning keng qo'llanilishi o'zining didaktik imkoniyatlari bilan samaradordir. Chunki ular o'quvchilarni mustaqil ishlashga, fikrlashga, ishni rejalashtirishga, o'z fikrini turli shakllarda bayon qilishga undovchi samarali omillardandir. Bugungi kunda innovatsion texnologiyalar sifatida ta'lim texnologiyalari ham maydonda keng qo'llanilmoqda. Jumladan, **interfaol usullardan foydalanish-imkoniyati cheklangan bolalarda ijtimoiy ko'nikma va malakalarini rivojlantirish omili sifatida tan olinmoqda.**

Hozirgi kunda "Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim", "Muammoli ta'lim", "Hamkorlikdagi ta'lim", "Blok-modulli o'qitish", "Rivojlantiruvchi ta'lim", "Masofaviy ta'lim", "O'yinli texnologiyalar" kabi ta'lim texnologiyalari qo'llanib kelinmoqda. Interfaol ta'lim muhiti zamonaviy ta'limning asosiy pedagogik shart-sharoiti hisoblanadi. Amaliyotda dars maqsadini belgilash bo'yicha ham noto'g'ri talqinlar ko'p uchraydi. Har qanday oddiy maqsadga erishish ham kamida 3 ta harakatni talab etadi. Dars jarayonida mavzu bo'yicha DTS da so'ralgan talablar va dasturda shu mavzuga necha soat ajratilganligidan kelib chiqib, mavzu asosida bitta maqsad ko'zlanishi va unga erishish uchun vazifalar belgilanishi lozim. "Maqsad" bu ko'zlanuvchi butunlik, "Vazifa" esa bajarilishi lozim bo'lgan tarkibiy qadamlardir. Shuning uchun biz maxsus ta'lim muassasalarida darslarga davlat talablari, dastur va mavzudan kelib chiqib, umumiy maqsad belgilashni joriy etdik. Ushbu maqsadga erishish uchun 3 ta vazifa belgilash tartibi o'z samarasini berdi. Demak maqsad 1 ta, vazifalar 3 ta: ta'limiy (o'quvchilar mavzu yuzasidan egallashlari lozim bo'lgan bilimni ko'zda tutadi); tarbiyaviy (o'zlashtirilgan ma'lumotlarning ma'lum mashqlarda mustahkamlash orqali o'zlashtiriluvchi ko'nikmalarni ko'zda tutadi), korreksion-rivojlantiruvchi (o'quvchilarning mavzu doirasida hayotda mustaqil qo'llashlarida zarur uquvlarini ko'zda tutadi). Amaliyotda pedagoglarning dars ishlanmalari tahlil qilinganda 3 ta maqsad: ta'limiy, tarbiyaviy, korreksion-rivojlantiruvchi sifatida belgilanishi aniqlandi. Bu

yondashuvni to'g'ri yoki noto'g'ri deya tavsiflash o'rnini mantiqiy tahlil qilish egallaydigan bo'lsa, unda quyidagi xulosa shakllanadi. Agarda 3 ta maqsad qo'yilsa, ularning har biri kamida 3 ta harakatni taqozo etishi bilan bog'liq ravishda 3 ta vazifa belgilanishi talab etiladi. Har bir vazifa kamida 1 tadan usul va ish turini taqozo etsa, unda har bir dars 9, 10 ta usulni talab etadi. Bu esa yuqorida aytib o'tilgan faqat dars bayoni uchungina yoziluvchi ma'lumotdan boshqa narsa emasdir. Bugungi kunda jahon amaliyotidagi ikki xil yondashuvni e'tirof etish mumkin. Yevropa tajribasida ham dars maqsadi bitta bo'lib, unga erishishning 2 yoki 3 hil vazifalari belgilanadi. Ularda eng muhimi bu, darsda o'quvchilarga mavzuni o'zlashtirish usulini tanlash imkonining berilishidir.

Sharq-Yaponiya tajribasida ham maqsad umumiy, biroq unga erishish har bir modulga yuklatiluvchi vazifalar orqali amalga oshiriladi.

Maxsus ta'lim tizimida qo'llaniladigan xususiy usullar umumiy o'rgatish usullari bilan mustahkam bog'liqdir. Maxsus ta'limni zamonaviy usullar va yondashuvlar-innovatsiyalar asosida tashkil etish-loyihalashtirishda uning tarkibiy tuzilmasidan birortasi e'tibordan chetda qolsa, yoki noto'g'ri tanlangan bo'lsa, tizim o'zini oqlamaydi, bu esa ta'lim jarayoni oldiga qo'ygan maqsadga erisha olmaslik ehtimolining yuzaga keltiradi.

Pedagogik texnologyalarga berilgan ta'riflarni umumlashtirgan holda ularning quyidagi asosiy sifatlari va imkoniyatlarini asoslash mumkin:

1. Tizimli yondashuv. Bunda dars jarayonining har bir bosqichi muayyan vazifani to'liq ado etishi uchun aniq ketma-ketlikda, belgilangan vaqt oralig'ida, oldindan tayyorlangan vositalar yordamida o'qituvchi tomonidan tanlangan usullarni qo'llash orqali o'quvchilarning faoliyatlarini samarali tashkil etishdir. Darsning har bir bosqichi yakuni keyingi bosqichning ilk qadami hisoblanadi. Ular bir-birlarini soat mexanizmi kabi etalaydi.

2. Har bir dars bosqichi maqsad va vazifalarda belgilangan, ya'ni o'zlashtirilishi ko'zda tutilgan o'quv materialining ma'lum qismini o'quvchilar tomonidan egallanishiga hizmat qiladi. Bu esa ta'riflarda keltirilgan "natijalarni

kafolatlash”ga imkon beradi. Ushbu natijalar o‘quvchilarning shu dars davomida egallashlari lozim bo‘lgan “bilib olish”, “egallash” va “bajarish”i lozim bo‘lgan o‘quv material hajmidir.

3. Dars elementlarining maqsadli tanlanishi va qo‘llanilishi. Bunda o‘qituvchilar shunday usul tanlashlari va ular uchun vositalar tayyorlashlari kerakki, ular dars maqsadi, vazifalari uchun xizmat qilsin. Tanlangan usul va vosita o‘qituvchi (oldindan tayyorlash uchun ketgan vaqti)ning ham va o‘quvchi (darsda)ning ham vaqtini samarasiz ketkazmasligi lozim. Ya’ni o‘qituvchi shunday usul tanlashi va u uchun vosita tayyorlashi kerakki, o‘quvchilar dars cho‘qqilarini engil va qulay zabt etsinlar.

4. Inson va vaqt resurlarining pedagogik jarayonga maqsadli va tizimli safarbar etilishi. Dars jarayonida o‘qituvchi, o‘quvchi shaxsi imkoniyatlaridan to‘g‘ri foydalanish kerak. Bundan tashqari vaqt omilining ustuvorligi unutilmasligi lozim. Interfaol ta’lim muhitida o‘qituvchi va o‘quvchilar o‘rtasidagi o‘zaro sheriklik munosabatlarining teng huquqlilik asosiga qurilishi, **“shu erda va hozir”** qayta aloqaning yuzaga kelganligi, ma’lum muammo bo‘yicha ko‘plab fikrlarning jamlanganligi umumiy aloqa muhitini hosil qiladi. Masalan, muammoli ta’lim mustaqil, ijodiy va faol o‘zlashtirishni ta’minlash bilan birga, o‘quvchilarni keng qamrovli fikr yuritishga, yangi bilimlarni o‘zlashtirishga tayyorlaydi. O‘quvchi muammoning echimi ustida izlanish orqali ma’lum to‘siqni engib o‘tadi. Ushbu tadqiqiy faoliyat o‘quvchida o‘z kuchi va bilimiga ishonch hissini uyg‘otadi. Bundan tashqari muammoli ta’limning mohiyati shundaki, u o‘quvchini mustaqillik va ijodiylikka undaydi. Muammoli ta’lim jarayonida o‘quvchining mustaqil fikrlashi, ijodiy faoliyat olib borishi uchun maqsadli sharoit yaratiladi.

Tadqiqot davomida amaliyotga ilk bor O‘zbekistonda “Raqamli pedagogika” ga oid yondashuvlar joriy etildi. Ma’lumki, 2019-yil 24-yanvarda birinchi marta nishonlangan “Xalqaro ta’lim kuni”ga bag‘ishlangan tadbirda UNESKOning “Raqamli pedagogika va o‘quv materiallari” bo‘limi boshlig‘i Svetlana Knyazeva BMT ning Global kommunikatsiya departamenti xodimi Nargis Shekinskayaning jamoatchilik axborotiga doir savollariga javob berdi. Jumladan, raqamli

iqtisodiyotga o'tish davrida ta'lim jarayonida raqamli pedagogika tamoyillaridan foydalanish muhimligi va AKT dan ta'limda foydalanishni kengroq tushunish lozimligi ta'kidlab o'tildi. BMTning "Raqamli pedagogika va o'quv materiallari" bo'limi faoliyati yoritilgan sahifada jumladan quyidagi xulosalar bayon etilgan: "AKT jamiyat hayotining turli sohalariga kirib kelganiga ancha davr bo'ldi. Biroq ta'lim sohasi texnik rivojlanish bilan bog'liq o'zgarishlar ortidan ulgura olmayapti. Ko'p rivojlangan davlatlarda raqamli moslamalar va ilovalar o'qitish jarayonida qo'llanilib kelinsada, biroq ta'lim davr talablariga to'liq javob bera olmayapti, XXI asr ko'nikmalarini tarkib toptirishga etarlicha imkon bermayapti. Bugungi kunda ta'lim sohasida kunduzgi, aralash va onlayn o'qitishda AKT dan va raqamli kontentdan foydalanishni tanqidiy tahlil qilish lozim. Raqamli pedagogika uchun ta'limning ochiqligi, xususan, Ochiq ta'lim resurslaridan foydalanish muhim ahamiyatga egadir. O'qituvchi va o'quvchilarning raqamli ko'nikmalari orasida axborot kommunikatsion texnologiyalardan foydalanish kompetensiyasi, mediaaxborot savodxonligi kabilar yetakchilik qilmoqda".

Yuqorida keltirilgan kabi va boshqa ma'lumotlarni tahlil qilish natijasida bugungi kunda jamiyatda keng qo'llanilayotgan raqamli aloqa vositalari, o'qitish moslamalari va dasturiy ilovalarning turli sohalardagi kabi ta'limda ham imkoniyatlari kengligi aniqlandi. Amaliyotda kar va zaif eshituvchi o'quvchilarning qo'l telefonlari va boshqa gadjetlardan foydalanishlari kuzatildi. Ayniqsa, ularning telefon orqali axborot uzatishga qiziqishlari ortib bormoqda. Karlarning og'zaki so'zlashish imkoniyatining etarlicha rivojlanmayotganligi sababli videoxabar berishga ehtiyoj kuchaymoqda. Shuning uchun amaliyotga qator raqamli yondashuvlarga asoslangan **"Men ekranda"**, **"Meni ko'ring, eshiting, tushuning"**, **"Men onlayn muloqotda"** kabi **"Raqamli metod"**lar ishlab chiqildi. "Men ekranda" metodi dastlab, tarbiyachilar faoliyatiga tatbiq etildi. Ular internet xizmati yordamida axborotlarni izlash, tanlash va "Videoportfolio" tayyorlashdi. Bu metod ayniqsa, "Imo-ishorali nutq"ni o'rganishda juda samarali yordam berdi. Datslab ular internet orqali tushunchalarning imo-ishoradagi belgisini qanday namoyish etilishini topib, so'ngra o'zlari shu belgilardan foydalanib videomurojaat tayyorladilar.

Yuqori sinf o'quvchilariga aynan internet orqali ma'lumot olib, 2-3 daqiqali lavha tayyorlash topshiriqlari berildi. Yuqori sinf o'quvchilariga "Oshxona", "Ustaxona", "Bizning ko'cha va mahalla", "Bizning oila", "Transportlar", "Bozor", "Bog'", "Dala", "Mening do'stim" kabi mavzularda "Men ekranda" metodi orqali kichik lavhalar tayyorlash topshirig'i berildi. Ular dastlab internetdan shu mavzuga doir rasmlar, ma'lumotlarni izladilar. Saqlab oldilar. Har bir rasm tagiga uning mazmuniga xos gaplar yozdilar. So'ngra shu mavzuga doir hayotiy vaziyatda lavha oldilar. Masalan, "Bu mening ko'cham, u erda uylar, daraxtlar, do'konlar bor. Bu qo'shnimiz Dilshod aka. Uning oq rangli mashinasi bor". "Bu bozor. Dehqon bozori. Men bozorga ona mbilan keldim. Biz olma, shakar, yog', non oldik, rasmdagi bozordan bizning bozor kattaroq va chiroyli". "Bu maktab oshxonasi. Bu esa, oshpaz opa. Bugun u bizga sho'rva va shavla tayyorlayapti". O'quvchining o'zi haqida, ya'ni oilasi va qiziqishlari haqidagi mualliflik lavhalarini tayyorlashga juda qiziqishlari kuzatildi. Shu tarzda o'quvchilar telefon orqali kichik-kichik lavhalar tayyorlashi ularning sog'lom insonlar orasida tez va samarali uyg'unlashib ketishiga imkon beradi.

Yuqorida bildirilgan fikrlarga tayangan holda quyidagi umumiy xulosaga kelish mumkin: ta'lim jarayonida interfaol metodlarni qo'llash o'quvchilarning o'quv faolliklarini oshirish hamda mashg'ulotlarning qiziqarli va samarali tashkil etilishini ta'minlash imkonini ham beradi. Har bir interfaol metod o'ziga xos didaktik imkoniyatlarga ega bo'lishi bilan birga, ulardan foydalanishda ma'lum shartlarga amal qilinishini taqozo etadi. Mazkur shartlarni pedagoglarga o'rgatish maqsadida ular uchun seminar mashg'ulotlari tashkil etildi. Ushbu seminar mashg'ulotlari aynan pedagoglarning innovsion faoliyatini tashkil etishga yo'naltirildi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” 2019-yil 29-apreldagi PF-5712-son Farmoni.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarga ta’lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2020-yil 13-oktabrdagi PQ-4860-son qarori.
3. Inklyuziv umumta’lim maktablari kamsituvchi munosabatlariga qarshi kurashish va jamoalarda qo‘llab-quvvatlovchi muhitni yaratish, inklyuziv jamiyat qurish va barchaga ta’lim berishning eng samarali vositasi sifatida Salamanka bayonoti. (Ispaniya), 1994-yil 7-10-iyun.
4. “Dakarskie ramki deystviy”- Senegal, 2000-yil 26-28-aprel
5. A.Turgunov. Kasb –hunarga yo‘naltirish o‘quv qo‘llanma T.2019
6. K.Jo‘raboyev “O‘quvchi yoshlarni kasb-hunarga yo‘naltirish bo‘yicha psixologik-pedagogik o‘yinlar, mashqlar va metodikalar Toshkent 2017.
7. V.V.Lapshin, B.P.Puzanov, “Основы дефектологии” учебное пособие, Moskva-1990.
8. U. Fayziyeva, D. Nazarova, F. Qodirova. “SURDOPEDAGOGIKA” malaka oshirish institutlari va pedagogika institutlari uchun o‘quv qo‘llanma T.: “Sano standart” 2012-yil.
9. “Inklyuziv ta’limning dolzarb masalalari: muammo va ularning yechimlari” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to‘plami. “Lesson-Press” nashriyoti, Toshkent-2021.
10. www.ziyonet.uz
11. www.klex.ru
12. www.window.edu.ru
13. <https://eduportal.uz>

Mundarija

Kirish.....	3
Oilalarda mashg‘ulotlarni tashkil etish va olib borish.....	6
Oilada eshitishida muammosi bo‘lgan bolalar bilan olib boriluvchi amaliy mashg‘ulotlar uchun ish namunalari.....	18
Umumta’lim muasasalarida inklyuziv sinf o‘quvchilarini ijtimoiy hayotga tayyorlashning innovatsion texnologiyalari.....	19
Predmetli amaliy ta’lim darslaridan ko‘zlangan didaktik vazifalar	32
“Tabiiy fan”, fanni o‘qitish jarayonida o‘quvchilarni ijtimoiy hayotga tayyorlashning mazmuni va usullari.....	47
Alohida talimga ehtiyoji bo‘lgan bolalarni ijtimoiy hayotga tayyorlashga yo‘naltirilgan strategiya va texnologiyalar	64
Xulosa	85
Foydalanilgan adabiyotlar	86

Eshitish imkoni cheklangan bola - ta'lim olish imkonidan cheklangan emas

nomli eshitishida muammosi bo'lgan bolalarning ota-onalari va keng
jamoatchilik orasida sog'lom ijtimoiy muhitni shakllantirish uchun metodik
tavsiya

Muharrir: M.Talipova
Musahhih: I.Tursunova
Kompyuterda tayyorlovchi: G.Ibragimova

Bosishga ruxsat etildi 28.12.2022.
Qog'oz bichimi 60x84¹/₈. TIMES garniturasida
Shartli bosma tabog'i 11,0. Nashr tabog'i 9,2
Adadi 1000. Buyurtma № 15-12.

«LESSON PRESS» MCHJ nashriyoti
Toshkent, Komolon ko'chasi, Erkin tor ko'chasi, 13

«IMPRESS MEDIA» MCHJ bosmaxonasida chop etildi.
Manzil: Toshkent sh. Qushbegi ko'chasi, 6-uy.